A.Radjabov, N.Eshpulatov

ILMIY TADQIQOT ASOSLARI

fanidan amaliy mashg'ulotlarni
o'tkazish bo'yicha

O'QUV QO'LLANMA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XOJALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI



A.Radjabov, N.Eshpulatov

“ILMIY TADQIQOT ASOSLARI”

fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent – 2021

UDK 339.543
BBK 72.45

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi № 110-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan.
Ro'yxatga olish raqami 110-430

A.Radjabov, N.Eshpulatov
"ILMIY TADQIQOT ASOSLARI" fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha o'quv qo'llanma. 2021. 128 bet.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan maqullangan "Ilmiy tadqiqot asoslari" fanining namunaviy dasturiga asosan yozilgan va 5430200 – "Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish", 5310200 – "Elektroenergetika" (suv ho'jaligida), 5140900-kasb ta'limi (Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish), 5430500 – "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti" bakalavr yo'nalishlari talabalari hamda 5A430501 – "Qishloq va suv xo'jaligida energiya ta'minoti", 5A430201 - Agrosanoat majmui elektrotexnik uskunalari va elektr ta'minoti, 5A520205- "Elektr ta'minoti" (suv xo'jaligida) magistratura mutaxasisliklargi bo'yicha taxsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada ilmiy tadqiqotlarda matematikaning qonun va nazariyalaridan foydalanish, eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish, o'tkazish va natijalari taxlili, ilmay tatqiqotlarda statistak usullarni qo'llash, eksperiment reja matritsasi va natijasi bo'yicha regressiya tenglamasini tuzish, optimallashtirish, ixtiro va patent olishga buyuruma berishga oid masala va misollar yechimi aniq bir energetik jarayonlar va uskunalar misolida yoritilgan. Kitob ilovasida ilmiy tatqiqotlarda matimatik statistika usullarini qo'llashda foydalanish uchun ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanmada keltirilgan materiallardan texnika yo'nalishlari bo'yicha tayanch doktarantura va doktarantura tinglovchilari hamda mustaqil izlanuvchilari ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar: **A.Radjabov** – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti "Elektrotexnologiyalar va elektr jixozlaridan foydalanish" kafedrasi professori, texnika fanlari doktori

N.Eshpulatov – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti "Elektrotexnologiyalar va elektr jixozlaridan foydalanish" kafedrasi dotsenti, PhD

Taqrizchilar: **T.Xolmurodov** - Toshkent davlat agrar universiteti "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish" kafedrasi mudiri, dotsent, texnika fanlari nomzodi

R.J.Baratov – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti "Elektrotexnika va mexatronika" kafedrasi mudiri, dotsent, texnika fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-7713-1-4

© Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, 2021 yil.

KIRISH

Fan va texnikaning bir-biri bilan bog'liq rivojlanish jarayoni insonga tabiyatda yuzaga kelayotgan resurslardan maqsadli foydalanish imkonini beradi. Bo'lajak bakalavrlar, magistrlar ushbu o'quv qo'llanmada keltirilgan misol va masalalarni yechimlarini o'rganishlari o'zlarining kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ilmiy yondashuv asosida yecha olishlariga yordam beradi. Ilmiy ijodiy yechimlar mahsulot ishlab chiqarish energetik samaradorligini oshirish, energiyani tejash energetik uskuna va qurilmalarning ekspluatatsion ko'rsatkichlarini yaxshilashni ta'minlaydi.

Ilmiy muvaffaqiyatlar bevosita oliy maktab rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Fan talabalarning bilimlariga, ularning ijodiy rivojlanishiga,. Hugungi kunda agrar soxa mutaxasislaridan, ham eski, ham mutlaqo yangi vazifalarni qo'yish va ilmiy asosda ularni yechimlarini topabilish ko'nikmasiga va kompitentlilikka ega bo'lishliklari talab etiladi. Ushbu adabiyot, ilmiy tadqiqotlarda matimatikaning qonun va nazariyalari dan foydalanish, eksprimental tadqiqotlarni rejalashtirish, o'tkazish va natijalari taxlili, ilmay tatqiqotlarda statistak usullarni qo'llash, eksperiment reja matritsasi va natijasi bo'yicha regressiya tenglamasini tuzish, optimallashtirish , ixtiro va patent olishga buyurtma berishga oid masala va misollar yechimlari aniq bir energetik jarayonlar va uskunalar misolida keltirilgan, davlat tilidagi ilk bor o'quv adabiyot bo'lganligi sababli kamchiliklardan xoli emas deb hisoblaymiz va undan foydalanuvchilardan o'z fikr va muloxazalarini kutib qolamiz.

SAMARQAND IQTISODIYOT
VA SERVIS INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 65684

1. ILMIY TADQIQOTLARDA MATEMATIKANING QONUN VA NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH

1.1. Ehtimolliklar nazariyasiga oid masalalar

1-Misol. T=1000 soat oralig'idagi xar qanday daqiqada elektr motorning ishdan chiqish ehtimolligi (voqeylik A) bir xil imkoniyatga ega.

Ushbu vaqt oralig'ida A voqeylikni sodir bo'lish ehtimolligi p=0,1 ga teng. Undan tashqari T=600 soat vaqt davomida elektr motorning buzilishi sodir bo'lmagan. Qolgan 400 soat davomida A voqeylikni ya'ni elektr motorni ishdan chiqish ehtimolligini aniqlang.

Echish: T vaqt oralig'ida A voqeylik sodir bo'lish ehtimolligi ushbu voqeylikni, t vaqt davomida *yuzaga kelish ehtimolligi* $\frac{t}{T}\cdot p$ bilan, t vaqt davomida ushbu voqeylik *yuzaga kelmaslik ehtimolligini* $(1-\frac{t}{T}\cdot p)$ avval yuzaga kelmagan bo'lsa qolgan vaqt mobaynida A voqeylikni yuzaga kelishi *nisbiy ehtimolligiga (P)* ko'paytmasini yig'indisiga teng bo'ladi.

$$p=\frac{t}{T}p+(1-\frac{t}{T}p)P. \tag{1.1}$$

Bundan $P=\dfrac{p(1-\frac{t}{T})}{1-\frac{t}{T}p}=0{,}1\dfrac{0{,}1-0{,}6}{1-0{,}6\cdot 0{,}1}=0.043;$

2-Misol. Elektr zanjiri elementlaridan 3 tasini ishdan chiqishi ehtimolliligi 0,1; 0,2; 0,3. Ushbu elementlarni ketma – ket va parallel ulanganda elektr zanjirda uzilishni sodir bo'lish ehtimolligini aniqlang.

Echish. Elementlarni ishdan chiqish ehtimolligini bir – biriga bog'liq bo'lmagan voqeylik va ularni A_1=0,1, A_2=0,2, A_3=0,3 deb zanjirni uzilishi yuzaga kelishini B voqeylik deb qabul qilamiz.

Elementlar parallel ulanganda zanjirni uzilishi voqeyligi $R_1(V)$ uchala voqeylik (elementlarni ishdan chiqishi) sodir bo'lganda yuzaga keladi.

$$P_1(B)=P(\bar{A}_1\,\bar{A}_2\,\bar{A}_3)=R(\bar{A}_1)P(\bar{A}_2)P(\bar{A}_3)=0{,}1\cdot 0{,}2\cdot 0{,}3=0{,}006.$$

Elementlar ketma – ket ulanganda elektr zanjirni uzilish voqeyligi $P_2(B)$ elementlarni uchtasidan birontasini uzilishi voqeyligi sodir bo'lsa yuzaga keladi.

B voqeylikni yuzaga kelmaslik ehtimolliligi ya'ni, zanjir uzilmaslik ehtimolligi $P_2(B)$ esa uchta ketma – ket ulangan elementlarni ishdan chiqishi sodir bo'lmaganda, ya'ni $\bar{A}_1$, $\bar{A}_2$, $\bar{A}_3$ yuzaga keladi.

$P_2(V)=P(\bar{A}_1\bar{A}_2\bar{A}_3)=P(\bar{A}_1)P(\bar{A}_2)P(\bar{A}_3)=(1-0,1)(1-0,2)(1-0,3)=0,504$

Uchta element ketma - ket ulangan zanjirda uzilish yuzaga kelish ehtimolligi $P_2(B)$ ni unga qarama – qarshi voqeylik ehtimolligi $P_2(B)$ orqali quyidagicha topiladi:

$$P_2(B)=1-P_2(B)=1-0,504=0,496$$

3-Misol. Elektr motorlarni ta'mirlash korxonasining yig'uv bo'limida turgan birinchi sexda ta'mirlangan 14 ta, ikkinchi sexda ta'mirlangan 6 ta dvigatel statorlaridan 2 tasi sinovdan o'tkazish uchun olib ketildi. Ularning birontasini birinchi sexda tayyorlanganligi ehtimolligini aniqlang.

Echish: statorlarni birinchi sexda tayyorlanganligini A_i voqeylik deb belgilaymiz (i=1,2). A_1 va A_2 voqeyliklar birgalikda sodir bo'lishini hisobga olib quyidagi formula bilan ifodalaymiz: $P(A_1+A_2)=P(A_1)+P(A_2)-P(A_1A_2)$. A_1+A_2 voqeyliklar bir biriga bog'liqligini inobatga olgan holda $P(A_1+A_2)=P(A_1)+P(A_2)-P(A_1)P(A_2|A_1)$ ni topamiz.

A_1 voqeylik sodir bo'lsa ya'ni, birinchi stator birinchi sexda ta'mirlangan bo'lsa unda yig'uv sexida qolgan 19 ta ta'mirdan chiqqan statordan 13 tasi birinchi sexda ta'mirlangan. Demak $P(A_2|A_1)=13/19$

$P(A_1)$ bilan $P(A_2)$ o'zaro tengligini hisobga olgan holda ya'ni $P(A_1)=P(A_2)=14/20$ bo'lganligi uchun $P(A_1+A_2)=14/20+14/20-14/20\cdot13/19=35/38$ natijani olamiz;

4-Misol. Elektr dvigatel statorida nosozlik izolyatsiyani buzilishi yoki kuchlanishni nominaldan oshishi natijasida sodir bo'lishi mukin.

t - vaqt davomiyligida elektr motor ishdan chiqdi:

$q_1=0,1$ - kuchlanishni nominaldan oshish ehtimolligi;

$q_2=0,2$ - izolyatsiyani buzilish ehtimolligi;

Elektr motorni ishdan chiqishiga birdan bir sabab stator izolyatsiyasini buzilishi ekanligini ehtimolligini aniqlang.

Kuzatilayotgan holat uchun quyidagi gipotezalarni shakllantirish mumkin:

H_1 – kuchlanishni oshishi va izolyatsiyani buzilishi sodir bo'lmagan;

H_2 – izolyatsiya buzilgan, kuchlanish nominaldan oshmagan;

H_3 – kuchlanish nominaldan oshgan, izolyatsiya buzilmagan;

H_4 – kuchlanish nominaldan oshgan, izolyatsiya buzilgan;

Gipotezalar ehtimolligi:

$$P(H_1)=(1-q_1)(1-q_2)=(1-0,1)(1-0,2)=0,9\cdot0,8=0,72;$$

$$P(H_2)=q_2(1-q_1)=0,2(1-0,1)=0,2\cdot0,9=0,18;$$

$$P(H_3)=q_1(1-q_2)=0,1(1-0,2)=0,1\cdot0,8=0,08;$$

$P(H_4)=q_1q_2=0,1\cdot0,2=0,02;$

A voqeylikni ushbu gipotezalarga ehtimolligi:

$P(A|H_1)=P(A|H_2)=P(A|H_3)=P(A|H_4)=1;$

Beysa formulasi bo'yicha $P(H_2/A)$ ni hisoblaymiz:

$$P(H_2/A)=\frac{P(H_2)P(A/H_2)}{\sum_{i=1}^{n}P(H_i)P(A/H_i)}=\frac{0,18\cdot1}{0,72\cdot0+0,08\cdot1+0,18\cdot1+0,02\cdot1}=0.643$$

5-Misol. Podstansiyani havo razryadi chaqmog'ining to'g'ridan to'g'ri zararlantirishidan ximoyalanishni modelda aniqlashda impulsli kuchlanish generatoridan uchta razryad (suniiy razryad) berish orqali omalga oshirilgan. Xar bir tajribada hosil qilingan suniiy razryadni (suniiy chaqmoqni) xar bir tajribada podstansiyaga tushish ehtimolligi (A-voqeylik) 0,4 ga teng bo'lganda razryadni podstansiyaga tushish soni (X) tasoddifiy kattalik miqdor deb qarab uni son xarakteristikasini aniqlang.

Echish: uchta tajriba (uchta razryad hosil qilinganda) razryadni podstansiyaga to'g'ridan to'g'ri tushish ehtimolligi ya'ni A voqeylikni sodir bo'lishini quyidagi formula orqali topamiz:

$$P_{i3}=C_3^i p^i(1-p)^{3-i}=\frac{3!}{i!(3-i)!}(0.4)^i\cdot(0.6)^{3-i},$$

$$i=0,\ 1,\ 2,\ 3,$$

1.1 – jadvalda keltirilgan taqsimlanish qatori bo'yicha kattaliklarni son ko'rsatkichlarini aniqlaymiz:

1.1-jadval

x_i	0	1	2	3
p_i	0,216	0,432	0,288	0,064

$$M(X)=\sum_{i=0}^{3}x_i p_i=0\cdot0,216+1\cdot0,432+2\cdot0,288+3\cdot0,064=1,2;$$

$$D(X)=\sum_{i=1}^{3}[x_i-M(X)]^2 p_i=(0-1,2)^2\cdot0,216+(1-1,2)^2\cdot0,432+$$

$$+(2-1,2)^2\cdot0,288+(3-1,2)^2\cdot0,064=0,72$$

$$\sigma_X=\sqrt{D(X)}=\sqrt{0,72}\approx0,84.$$

Bu yerda: M(x)-matematik kutilish, x_i - kuzatuv natejalari, p_i - uzilish sodir bulish yehtimolligi , D(x) – bosh despersiya, σ_X - *Despersiya.*

6-Misol. 380 V elektr tarmoqga elektr dvigatel va yoritish lampalari ulangan (1.1 - rasm).



1.1- rasm. Elektr tarmoqga elektr dvigatel va yoritish lampalarining ulanish sxemasi

Elektr motor (kuch yuklama) barcha simlarda bir xil yuklama hosil qiladi va ularni yuzaga kelish ehtimolligi 1.2 - jadvalda keltirilgan.

1.2 - jadval

P, kVt	10	8	6	4	2	0
Ehtimolligi	0,6	0,2	0,1	0,05	0,03	0,02

Yoritish yuklama elektr lampalar tomonidan A, B, C fazalarda yuzaga keladigan yuklamalar interval qatori 1.3 - jadvalda keltirilgan.

1.3 - jadval

Faza	Yuklama intervallari, kVt				
	10 – 8	8 – 6	6 – 4	4 - 2	2 – 0
A	0,7	0,1	0,1	0,06	0,04
B	0,5	0,25	0,25	0,03	0,02
C	0,6	0,2	0,15	0,04	0,01

1 ta fazaga to‘g‘ri keladigan yuklamalar ehtimolligi o‘rtacha qiymatini aniqlang.

Echish: fazalar bo‘yicha umumiy yuklama taqsimlanishini topamiz. Buning uchun 1.2 va 1.3 jadvallarda keltirilgan elektr yoritgichlar va dvigatellar quvvatlari va ehtimollik ko‘rsatkichlari ko‘paytmasi yig‘indilarini fazalar bo‘yicha taqsimlab chiqamiz (1.4 - jadval).

1.4 - jadval

Faza	Yuklama intervallari, kVt									
	20-18	18-16	16-14	14-12	12-10	10-8	8-6	6-4	4-2	2-0
A	0,42	0,2	0,15	0,101	0,072	0,036	0,012	0,006	0,002	0,001
B	0,3	0,25	0,22	0,112	0,058	0,036	0,016	0,006	0,002	0,0
C	0,36	0,24	0,19	0,103	0,057	0,032	0,012	0,005	0,001	0,0
O‘rtacha ext-liik	0,36	0,23	0,187	0,105	0,0623	0,0347	0,0133	0,0057	0,0017	0,003

1.4 - jadvaldan ko'rinib turibdiki fazalarga to'g'ri keladigan yuklamalar bir biridan juda ham kam farq qiladi. Demak fazalar asssimmetriyasi yo'q degan hulosaga kelamiz.

Ushbu amalni bir - biriga bog'liq bo'lmagan voqeyliklarni (elektr yoritgich yuklamalar sodir bo'lish, A voqeylik va kuch yuklamalarni sodir bo'lishi, B voqeylik) sodir bo'lish ehtimolliklarini ko'paytirish teoremasini va bir biriga mos kelmaydigan voqeyliklarni sodir bo'lishini qo'shish teoremasini qo'llab bajaramiz. Masalan: A faza yuklamasini 18 -16 kVt oralig'ida sodir bo'lish ehtimolligi yoritish va kuch yuklamalarini ikki xil qiymatida yuzaga keladi (1.5 - jadvalni 2 va 3 ustunlari). A fazaga to'g'ri keladigan yuklamalar ehtimolligi 0,20 ga teng ekan.

1.5 - jadval

Interval	Kuch yuklama	Elektr yoritgich kVt	Ehtimolligi		P_{kuch}, P_{yorit}
			R_{kuch}	R_{yorit}	
18 – 16	10 8	8 – 6 10 - 8	0,6 0,2	0,1 0,7	0,06 0,14
Umumiy ehtimollik					0,20

7-misol. Nimstansiya shinasidagi kuchlanish qiymati nazorat qilinayotgan bo'lsin. Kuchlanish meyor chegarasida bo'lganda (9.5 kVdan 10.5 kV gacha - B xodisa) ehtimolligi 0.87 ga teng. Kuchlanish 9.5 kV dan past bo'lganda (A xodisa) ehtimolligi 0.05 ga teng kuchlanish 10.5 kVdan yuqori bo'lganda (C-xodisa) 0.08 ga teng. Nimstansiyalar shinasidagi kuchlanish ba'zi bir kuzatuvlarda me'yor chegarasida bo'lmaslik ehtimolligini topish(B xodisa).

Echim. *A, B* va C xodisalar bir-biriga to'g'ri kelmaydigan xodisalar bo'lib faqatgina xodisalarini to'liq guruxini tashkil qiladi xolos.

1-usul: D xodisa A va C xodisalar yig'indisiga teng:

$D = A + C$ = (yoki A, yoki C).

Ehtimollarni qo'shish teoremasiga asosan:

$P(D) = P(A) + P(C) = 0,05 + 0,08 = 0,13.$

2-usul: D xodisa V xodisaga qarama-qarshidir

$B\ (D = \bar{B})$

Shuningdek $P(A) + P(\bar{A}) = 1$ shartni qo'llab

P (D) = 1 -P(B) = 1 - 0,87 = 0,13.

8-misol. Ehtimolligi 0,1; 0,2; va 0,3 xolda 3 ta element ishdan chiqadi. Bu elementlarni parallel va ketma-ket ulaganda zanjir uzilish ehtimolligini topish.

Echish: $A_i - i$ ta elementni ishdan chiqish xodisasini ifodalasin. (i=1, 2, 3), B – zanjir uzilishini ifodalasin.

Parallel ulanganda zanjir uzulishi xamma elementlar ishdan chiqqandagina sodir bo'ladi. A_i xodisa mustaqilligi sababli izlangan ehtimollik quyidagicha bo'ladi:

$$P_1(B) = P(A_1A_2A_3) = P(A_1)\,P(A_2)\,P(A_3) = 0{,}1 \cdot 0{,}2 \cdot 0{,}3 = 0{,}006.$$

Ketma-ket ulanganda zanjir uzilishi kamida bitta element ishdan chiqqandagina sodir bo'ladi. Bu xolatda avval qarma-qarshi xodisa (B) ni ehtimolligini aniqlaymiz. Agarda xamma elementlar soz bo'lsa ya'ni birortasi xam ishdan chiqmasa zanjir uzilishi bo'lmaydi.

Demak:

$$P_2\left(\bar{B}\right) = P\left(\bar{A}_1\bar{A}_2\bar{A}_3\right) = P\left(\bar{A}_1\right)P\left(\bar{A}_2\right)P\left(\bar{A}_3\right) = (1-0{,}1)(1-0{,}2)(1-0{,}3) = 0{,}9 \cdot 0{,}8 \cdot 0{,}7 = 0{,}504$$

Unda talab etilgan ehtimollikni ushbu formula orqali aniqlaymiz

$$P(A) + P(\bar{A}) = 1$$

$$P_2(B) = 1 - P_2(B) = 0{,}496$$

9-misol. Avtomatik boshqaruv tizimi ishi N ta releдan birortasi ishdan chiqishi natijasida to'xtab qoldi. Nosozlikni bartaraf etish uchun navbat bilan xar bir releni tekshirish kerak.

Agar xar bir releni ishdan chiqish ehtimolligi bir xil bo'lsa, ehtimollikni aniqlash uchun n ta releni tekshirish kerak bo'ladi. ($1 \le p \le$ N)

Echish. A_i –xodisani ko'rib chiqamiz bunda i-ta rele soz xolatda (ishdan chiqmagan) ($1 \le i \le N$). N ta tugundan bittasigina nosoz, qolgani $N-1$ soz xolatda, demak

$$P(A_1) = \frac{N-1}{N}, \qquad P\left(\bar{A}_1\right) = 1 - P(A_1) = \frac{1}{N}. \tag{1.2}$$

Ehtimollik shundaki , bittagina releni tekshirish kerak bo'ladi.

$$p_1 = P\left(\bar{A}_1\right) = \frac{1}{N}. \tag{1.3}$$

p_2 ni topish uchun (bunda ehtimollikni aniqlash uchun ikkita releni tekshirish kerak bo'ladi). Avval $P(\bar{A}_2 \mid A_1)$ ni aniqlaymiz, ya'ni ikkinchi rele nosozlik ehtimolligini agarda birinchi rele soz desak. Agar birinchi rele soz bo'lsa, unda qolgan N-1 relelardan bittasi nozoz. Shuning uchun

$$P\left(\bar{A}_2 \mid A_1\right) = \frac{1}{N-1} \qquad (1.4)$$

U xolda ehtimollarni ko'paytirishning birinchi teoremasiga asosan

$$p_2 = P\left(A_1 \bar{A}_2\right) = P(A_1)P\left(\bar{A}_2 \mid A_1\right) = \frac{N-1}{N} \cdot \frac{1}{N-1} = \frac{1}{N}. \qquad (1.5)$$

Xuddi shunday $p_3 ... p_n$ xam shunday aniqlaymiz

$$p_3 = P\left(A_1 A_2 \bar{A}_3\right) = P(A_1)P\left(\bar{A}_2 \mid A_1\right)P\left(\bar{A}_3 \mid A_1 A_2\right) = \frac{N-1}{N} \cdot \frac{N-2}{N-1} \cdot \frac{1}{N-2} = \frac{1}{N} \text{ i t.d.;}$$

$$p_n = P\left(A_1 A_2 ... A_{n-1} \bar{A}_n\right) = \frac{1}{N} \qquad (1.6)$$

10-misol. Avtomatik qurilmaning ishlashi ikki regulyator yordamida aniqlanadi. Qurilmaning ikkala regulyator ishlab turganida to'xtab qolish ehtimoli– $q_{1,2}$, bir regulyator ishlab turgandagisi – q_1, faqat ikkinchi regulyator ishlab turgan xoldagi qurulmaning to'xtab qolish ehtimoli – q_2, ikkila regulyator ishlamay qolgandagi ehtimollik– q_0. Birinchi regulyatorning to'xtamasdan ishlash ehtimolligi – p_1, ikkinchi regulyatorning to'xtamasdan ishlash ehtimolligi - p_2.hamma elementlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan xolda ishdan chiqadi. Qurilmani to'xtamasdan ishlash ehtimolligini toping. A-ehtimollik xodisasi.

Echish: quyidagi taxminlarni ko'rib chiqamiz.

$H_{1,2}$ – ikkala regulyator ishlayapti;

H_1 – faqat birinchi regulyator ishlayapti(ikkinchisi ishdan chiqqan);

H_2 –faqat ikkinchi regulyator ishlayapti (birinchisi ishdan chiqqan);

H_0 – ikkala regulyator ishdan chiqqan.

1.6-jadval

Ehtimollik				Shartli ehtimollik P(A\Hi)	To'liq ehtimollik
Qurilmani ishlamasligi	Regulyatorni ishlashi	Taxmin(gipoteza)			
$q_{1,2} = 0,01$	$P_1 = 0,95$	$H_{1,2}$	0,855	0,99	0,846
$q_1 = 0,10$	$P_2 = 0,90$	H_1	0.095	0.90	0.085
$q_2 = 0,20$		H_2	0,045	0,80	0,036
$q_0 = 0,60$		H_0	0,005	0,40	0,002
A xodisaning ehtimolligi					0,969

Taxminlar ehtimolligi

$$P(H_{1,2}) = p_1 p_2; \qquad P(H_1) = p_1(1-p_2); \qquad (1.7)$$

$$P(H_2) = p_2(1-p_1); \qquad P(H_0) = (1-p_1)(1-p_2) \qquad (1.8)$$

Bu taxminlar bo'yicha L xodisadagi shartli ehtimollik quyidagicha:

$$P(A|H_{1,2})=1-q_{1,2}; \quad P(A|H_1)=1-q_1; \tag{1.9}$$

$$P(A|H_2)=1-q_2; \quad P(A|H_0)=1-q_0. \tag{1.10}$$

Formula orqali to'liq ehtimollikka ega bo'lamiz:

$$P(A)=p_1p_2(1-q_{1,2})+p_1(1-p_2)(1-q_1)+p_2(1-p_1)(1-q_2)+(1-p_1)(1-p_2)(1-q_0). \tag{1.11}$$

Konkret avtomatik rostlash tizimi uchun ehtimollik qiymatlari 5-jadvalda keltirilgan bo'lib unda oraliq va yechimning yakuniy natijalari xam berilgan.

11-misol. Zavod elektr dvigatellar ishlab chiqaradi ularning har biri P ehtimollikda nuqsonga ega. Sexda uchta nazoratchi ishlaydi. Mahsulotni faqatgina bitta nazoratchi tekshiradi, bir xil ehtimollikda bir, ikki yoki uchinchi nazoratchi. Mahsulotdagi nuqsonni (agar bo'lsa) aniqlash ehtimolligi xar bir nazoratchi tomonidan p_i (i = 1, 2, 3). Agar mahsulot sexda yaroqsiz deb topilmasa zavodni texnik nazorat bo'limiga OTK o'tadi va nuqson p_0 ehtimolligida aniqanadi.

Quyidagi xodisalardagi ehtimollikni aniqlash:

A – mahsulot yaroqsiz deb topildi ;

B – mahsulot sexda yaroqsiz deb topildi ;

C – mahsulot zavod texnik nazorat bo'limida OT K da yaroqsiz deb topildi.

Echish. B va C xodisalar bir-biriga muvofiq kelmaydi va

A = B +C, unda P(A) = P(B + C) = P(B) + P(C). (1.12)

P (B)ni topaylik. Mahsulot sexda yaroqsiz deb topish uchun mahsulotda nuqson bo'lishi kerak(m-xodisa) va bu nuqson aniqlangan bo'lishi kerak.(N xodisa):

$$P(B) = P(MN) = P(M)P(N|M). \tag{1.13}$$

Mavjud nuqsonni sexda aniqlash ehtimolligi to'liq ehtimollik formulasi bo'yicha quyidagiga teng:

$$P(N|M)=\frac{1}{3}(p_1+p_2+p_3) \tag{1.14}$$

Bundan

$$P(B)=p\frac{p_1+p_2+p_3}{3}. \tag{1.15}$$

Xuddi shunday

$$P(C)=p\left(1-\frac{p_1+p_2+p_3}{3}\right)p_0, \tag{1.16}$$

$$P(A)=p\frac{p_1+p_2+p_3}{3}+pp_0\left(1-\frac{p_1+p_2+p_3}{3}\right) \tag{1.17}$$

12-misol. Elektr dvigatel statorining cho'lg'amlarining butunligi o'ta kuchlanishda yoki izolyatsiyaning shikastlanishidan buzilishi mumkin. Ma'lum vaqt t oralig'ida o'ta kuchlanish ehtimolligi $q_1 = 0{,}1$,

izolyatsiyaning shikastlanish ehtimolligi $q_2 = 0,2$. Ma'lum vaqt davomida t dvigatel ishdan chiqdi. Shunday ehtimollikni topingki dvigatelni ishdan chiqishiga yagona sabab izolyatsiyaning shikastlanishi bo'lsin.

Echish: quyidagi farazlar mavjud:

H_1 – o'ta kuchlanish ham, izolyatsiya shikastlanishi ham bo'lmagan;

H_2 – o'ta kuchlanish bo'lmagan, izolyatsiya shikasti bo'lgan;

H_3 – o'ta kuchlanish bo'lgan, izolyatsiya shikastlanishi bo'lmagan;

H_4 – o'ta kuchlanish va izolyatsiya shikastlanishi bo'lgan.

Farazlar ehtimolligi :

$$P(H_1) = (1-q_1)(1-q_2) = 0,8 \cdot 0,9 = 0,72;$$

$$P(H_2) = q_2(1-q_1) = 0,2 \cdot 0,9 = 0,18;$$

$$P(H_3) = q_1(1-q_2) = 0,1 \cdot 0,8 = 0,08;$$

$$P(H_4) = q_1 q_2 = 0,1 \cdot 0,2 = 0,02.$$

A xodisadagi shartli ehtimollik yuqoridagi farazlarga nisbatan quyidagicha:

$P(A \mid H_1) = 0$, $P(A \mid H_2) = P(A \mid H_3) = P(A \mid H_4) = 1$.

Beys formulasiga asosan

$$P(H_2 \mid A) = \frac{P(H_2)P(A \mid H_2)}{\sum_{i=1}^{4} P(H_i)P(A \mid H_i)} = \frac{0,18 \cdot 1}{0,72 \cdot 0 + 0,08 \cdot 1 + 0,18 \cdot 1 + 0,02 \cdot 1} = 0,643.$$

13-misol. Mahsulot birligiga nisbatan elektr energiyaning solishtirma sarfi ehtimolligi sutka davomida me'yordan oshmaydi va u 0,8 ga teng. Yaqin 7 sutka solishtirma sarf 4 sutka davomida me'yordan oshmasligi ehtimolini toping.

Echish: topshiriq shartiga ko'ra n = 7, m = 4, p = 0,8, q= 1-p = 0,2. Bernulli formulasiga muvofiq talab qilingan ehtimollik

$$P_{47} = C_7^4 p^4 q^3 = \frac{7 \cdot 6 \cdot 5 \cdot 4}{1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4} (0.8)^4 \cdot (0,2)^3 = 0,115.$$

14-misol. Tuman elektr tarmoqlarida 5 ta nimstansiya 35/10 kV, bilan distpetcherlik aloqasi o'rnatilgan. Vaqti-vaqti bilan atmosferadagi xalaqitlar tufayli aloqa uzilib qoladi. Nimstansiyalarning bir-biridan uzoqligi sababli aloqaning yo'qolib qolishi xar birida boshqalaridan aloxida bog'liq bo'lmagan xolda yuz beradi va ehtimolligi 0,2.

Quyidagilarni toping: 1) berilgan vaqtda kamida ikkita nimstansiyada aloqa buzilishi ehtimoli. 2) aloqa yo'qolgan nimstansiyalarning eng yuqori ehtimoliy sonlarini toping.

Echish: A xodisa shu natijaga olib keladiki aloqa kamida uchta nimstansiyada ishlaydi r = 0,8, g = 1 - 0,8 = 0,2.

(1,13) formula bo'yicha quyidagini aniqlaymiz

$$P_5(3) = P_{35} + P_{45} + P_{55} = C_5^3 p^3 q^2 + C_5^4 p^4 q + C_5^5 p^5 q^0 =$$

$$= C_5^3 \cdot (0{,}8)^3 \cdot (0{,}2)^2 + C_5^4 \cdot (0{,}8)^4 \cdot 0{,}2 + C_5^5 \cdot (0{,}8)^5 \cdot (0{,}2)^0 = 0{,}942.$$

Aloqa yo'qolgan nimstansiyalarning eng yuqori ehtimoliy soni butun songa teng bo'ladi $(n+1)\,q = (5+1) \cdot 0{,}2 = 1{,}2$, ya'ni $\mu = 1$. Shunday qilib aloqa yo'qolishida bittagina nimstansiya eng yuqori ehtimollikka ega.

15-misol. Zavod mahsulot ishlab chiqaradi, shundan N % standart talablariga javob beradi. Mahsulotdan n=100 tasi a) roppa rosa *l* tasi nostandart mahsulot, b) kamida k tasi nostandart mahsulotligi ehtimolligi qanday bo'ladi.

Echish: masalani ikki variantda yechamiz

1) N= 80%, $l = 18$, K = 16; 2) N = 95%, $l = 7$.

1. nostandart mahsulotni saqlash ehtimolligi

$p = 1 - \frac{N}{100} = 0{,}2;\ \ q = 1 - p = 0{,}8;\ \ npq = 100 \cdot 0{,}2 \cdot 0{,}8 = 16 > 9.$

Laplasni asimptotik formulasidan foydalanamiz. Formula bo'yicha

$$P_{mn} \approx \frac{1}{\sqrt{npq}} \cdot \frac{1}{\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{t^2}{2}} \qquad (1.18)$$

$P_{18,100} = \frac{1}{\sqrt{npq}} \varphi(t)$, gde $t = \frac{18 - np}{\sqrt{npq}} = \frac{18 - 20}{4} = -\frac{1}{2}$.

1-ilovadagi jadvaldan $\varphi\left(-\frac{1}{2}\right) = \varphi\left(\frac{1}{2}\right) = 0{,}3521$ ni topamiz,

$P_{18,100} = \frac{1}{4} \cdot 0{,}3521 \approx 0{,}088$.

Formula bo'yicha $\Phi(t) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_0^t e^{-\frac{t^2}{2}} dt$ (1.19)

$$P_{100}(m \geq 16) = P_{100}(16{,}100) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{t_1}^{t_2} e^{-\frac{t^2}{2}} dt, \qquad (1.20)$$

bundan

$t_1 = \frac{k - np}{\sqrt{npq}} = \frac{16 - 0{,}2 \cdot 100}{4} = -1;\ \ t_2 = \frac{n - np}{\sqrt{npq}} = 20,$

Laplas funksiyasi bo'yicha ifodalab quyidagicha yozish mumkin

$P_{100}(16{,}100) = \Phi(20) - \Phi(-1) = 0{,}5 + 0{,}34134 \approx 0{,}84$

(F (t) funksiya qiymatlari ilovaning 2- jadvalidan olinadi).

2. bu xolatda nostandart mahsulotni aniqlash ehtimolligi

$p = 1 - \frac{N}{100} = 0{,}05;\ \ q = 1 - p = 0{,}95 \quad npq = 100 \cdot 0{,}05 \cdot 0{,}95 < 9.$

Talab etilgan ehtimollikni xisoblash uchun Puasson teoremasidan foydalanamiz ($\lambda = nr = 5$):

$P_{100}(7) = \frac{5^7 \cdot e^{-5}}{7!} = 0{,}104$ (ilovadagi 2-jadvalga qarang).

1.2. Axborot nazariyasi asoslariga oid masalalar

16-misol. Ikkita priborlardan tashkil topgan va ikkalasini ishlash ehtimolligi P_1=0,7 bo'lganda sistemani entropiyasini aniqlang. Birinchi va ikkinchi priborni ishdan chiqishi bo'yicha taxmin gipoteza teng ehtimollikka ega ikkala priborni bir vaqtda ishlamay qolish (ishdan chiqish) ehtimolligi P_2=0,05.

Echish. Sistemani xolatini belgilab olamiz:

Ikkala pribor ishlab turgan xolatni - x_1 ($p_1 - 0{,}7$);

Ikkala pribor ishdan chiqqan xolatni - x_2 ($p_2 - 0{,}05$);

Ikkita pribordan bittasi ishdan chiqqan xolat - x_3 (p_3).

Sistema yuqoridagi 3 ta xolatdan bittasini ifodalay olishini xisobga olib x_3 ni quyidagicha topamiz: $p_3 = 1 - p_1 - p_2 = 1 - 0{,}7 - 0{,}05 = 0{,}25$.

Ikkinchi ilova 2.7 jadvaldan foydalanib sistemani entropiyasini aniqlaymiz:

$$H(X) = -\sum_{i=1}^{3} p_i \log p_i = 0{,}360 + 0{,}216 + 0{,}500 = 1{,}076 \text{ bita}$$

Demak ushbu sistemani entropiyasi teng ehtimollikka ega ikkita xolat sistema entropiyasiga yaqin ekan.

17-misol. Chorvachilik binosi ichida xarorat ikkita bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan sistema ta'siriga bog'liq. Issiq xavo berish sistema X (birinchi sistema) 3 xil xolatda mavjud bo'lishi mumkin: sistema ishchi xolatda $p(x_1) = 0{,}7$; avtomatika qurilmasi nosoz xolatda $p(x_2) = 0{,}2$; qizitish uskuna nosoz xolatda $p(x_3) = 0{,}1$.

Shamollatish sistemasi Y (ikkinchi sistema) ikkita xolatda bo'lishi mumkin: sistema ishchi xolatda (soz) $p(u_1) = 0{,}85$; sistema nosoz xolatda $p(y_2) = 0{,}15$. xolati ma'lum bo'lmagan X va Y sistemalardan tashkil topgan murakkab sistema entropiyasini toping.

Echish: Ikkinchi ilova 2.2 jadvaldan foydalanib X sistema xolatini aniqlaymiz

$$H(X) = -\sum_{i=1}^{3} p_i \log p_i = 1{,}156 \text{ bita.}$$

Y sistema entropiyasini aniqlaymiz:

$$H(Y) = \sum_{i=1}^{2} p_i \log p_i = 0{,}610 \text{ bita;}$$

X, Y sistemalardan tashkil topgan murakkab sistema entropiyasini topamiz:

$$H(X,Y) = 1{,}156 + 0{,}610 = 1{,}766 \text{ bita.}$$

Sistemani ushbu entropiyasi uchta va to'rtta teng ehtimolli xolatli sistemalar entropiya oralig'ida joylashgan.

18-misol. Ikki biri-biriga bog'liq bo'lgan X va Y tizimning to'liq shartli entropiyasini N (Y | X) i N (X | Y) toping, agar (X, Y) murakkab tizimning ehtimolligi 1.7-jadvalda berilgan bo'lsa

1.7-jadval

y_j	x_j			p_j
	x_1	x_2	x_3	
y_1	0,20	0,09	0,10	0,39
y_2	0,10	0,12	0,02	0,24
y_3	0,15	0,01	0,21	0,37
p_j	0,45	0,22	0,33	

Echish. Ehtimolliklarni ustunlar bo'yicha qo'shib, $p_i = P(X = x_i)$, ni xosil qilamiz

$$p_1 = 0{,}45; \quad p_2 = 0{,}22; \quad p_3 = 0{,}33.$$

Xuddi shunday P_{ij} ni qatorlar bo'yicha qo'shib $p_j = P(Y = y_i)$ ehtimollikni topamiz. P_{ij} ni p_i ga bo'lib shartli ehtimollikni topamiz. Bu 1.8-jadvalda ko'rsatilgan $P(y_i / x_i)$.

1.8-jadval

y_j	x_j		
	x_1	x_2	x_3
y_1	0,44	0,41	0,30
y_2	0,22	0,54	0,06
y_3	0,33	0,04	0,64

7-ilovadagi jadvaldan foydalanib (3.19) formula orqali H (Y | X) ni shartli entropiyasini topamiz,

$$H(Y \mid X) = \sum_{i=1}^{n} p_i \eta\left[P(y_j \mid x_i)\right] = 0{,}45[\eta(0{,}44) + \eta(0{,}22) + \eta(0{,}33)] + 0{,}22[\eta(0{,}41) + \eta(0{,}54) + \eta(0{,}04)] +$$

$$+ 0{,}33[\eta(0{,}30) + \eta(0{,}06) + \eta(0{,}64)] = 1{,}336 \text{ bita}$$

xuddi shunday H (X | Y)ni xam aniqlash mumkin.

19-misol. Qishloq xo'jalik texnikasini tuzatish ustaxonasida 8 ta elektr dvigatel ishlaydi. Shikastlanish oqibatida bitta dvigatel ishdan chiqdi. Qabul qilingan xabardan aynan qaysi dvigatel ishdan chiqqan ma'lumotni aniqlang.

Echish: Tizim holati xaqidagi qabul qilingan ma'lumotlar teng ehtimollik natijasiga ko'ra logn. ga teng. Xozirgi hodisada elektr dvigatel shikastlanishi xaqidagi xabardagi ma'lumot quyidagiga teng:

$$I = -\log_2 8 = 3 \text{ bita.}$$

20-misol. X sistemasini entropiyasini toping, agar bo'lishi mumkin bo'lgan holati me'yoriy qonun asosida taqsimlangan bo'lsa, M (X) = 0.

Echish: sistemani bo'lishi mumkin bo'lgan holatini taqsimlanish zichligi quyidagicha

$$f(x) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}. \qquad (1.21)$$

Po $H(X)_{np} = -\int_{-\infty}^{\infty} f(x)\log f(x)dx$ sistemani entropiyasi

$$H(X)_{np} = -\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}} \log\left(\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}\right) = -\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}\left[\log\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} - \frac{x^2}{2\sigma^2}\log e\right]dx =$$

$$= \frac{\log\sigma\sqrt{2\pi}}{\sigma\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}dx + \frac{\log e}{2\sigma^2}\cdot\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty} x^2 e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}dx.$$

Shuningdek $\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty} e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}dx = \int_{-\infty}^{\infty} f(x)dx = 1$ (1.6 paragrafga qarang), unda

$$\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty} x^2 e^{-\frac{x^2}{2\sigma^2}}dx = \int_{-\infty}^{\infty} x^2 f(x)dx = \sigma^2. \qquad (1.22)$$

Unda entropiya ifodasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$H(X)_{np} = \log\sigma\sqrt{2\pi} + \frac{1}{2}\log e = \log\sigma\sqrt{2\pi e}, \qquad (1.23)$$

Ya'ni bo'linishning ortishi bilan sistemani mumkin bo'lgan noaniqlik xolati xam ortadi. Xuddi shunday holat sistema xolatining boshqa mumkin bo'lgan taqsimlanish qonunlariga xam xarakterlidir.

1.2-rasmda sistema uchun, normal qonun asosida taqsimlangan, H (0, σ), entropiyani o'rtacha kvadratli og'ishi o'zgarishiga bog'liqligi ko'rsatilgan.



1.2-rasm

21-misol. Shennon-Feno kodiga asosan (3-rasm) ifodani ikkilangan kodning yordamida yozish.

1.9-jadval

O'nli sanoq sistemasi	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Sakkizlik sanoq sistemasi	0	1	2	3	4	5	6	7	10	11	12	13	14	15	16	17	20

Echish. 3-rasmdan foydalanib quyidagi so'zni yozamiz, u quyidagi ko'rinishga ega: (aniqlik uchun ajratuvchi oraliqlar saqlangan):

№ т/р	Харф	Харфларнинг содир бўлиш эҳтимоллиги	Иккилик белгилар									Код
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	
1	-	0,146		0	0							000
2	О	0,095			1							001
3	Е	0,074	0		0	0						0100
4	А	0,064		1		1						0101
5	И	0,064			1	0						0110
6	Т	0,056				1						0111
7	Н	0,056			0	0						1000
8	С	0,056				1						1001
9	Р	0,047		0			0					10100
10	В	0,041			0	0	1					10101
11	Л	0,039		1		1	0					10110
12	К	0,036			1		1					10111
13	М	0,029				0	0					11000
14	Д	0,028			0		1	0				110010
15	П	0,024						1				110011
16	У	0,021				1	0					110100
17	Я	0,019					1	0				110110
18	Ы	0,016						1				110111
19	З	0,015	1			0	0	0				111000
20	Ъ, Ь	0,015						1				111001
21	Б	0,015					1	0				111010
22	Г	0,014		1				1				111011
23	Ч	0,013					0	0				111100
24	Й	0,010				0		1	0			1111010
25	Х	0,009			1		1	0	1			1111011
26	Ж	0,008						1	0			1111100
27	Ю	0,007				1			1			1111101
28	Ш	0,006					1			0		11111100
29	Ц	0,004							0	1		11111101
30	Щ	0,003						1		0		11111101
31	Э	0,003							1	1	0	111111110
32	Ф	0,002									1	111111111

1.3-rasm. Shennon-Feno kodi

Amalda xabarlarni kodlash ikkilangan o'nli kod asosida keng qo'llaniladi. Bunda xar bir o'nli raqam ikkilanib to'rtta belgilar guruhini tashkil qiladi. To'rtta ikkilangan sonning zarurati shunday aniqlanadiki, o'nli son 8 ikkilangan kodda 1000 yoziladi, 9 esa 1001(1.10-jadvalda ko'ringanidek) kodni yanada ixcham qilish uchun ko'pincha

AXBOROT RESURS MARKAZI
65684

sakkizlangan va ikkilangan sakkizli kodlar ishlatiladi. Bu kodni afzalligi shundaki unda 8 va 9 sonlar ishlatilmaydi va ikkilangan bitta sakkizlangan sonni sanash uchun 4 ta emas balki 8 uchun ikkilangan belgi (triada) zarur bo'ladi. (1.10-jadval)

1.10-jadval.

O'nli tizimda sinash	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Ikkilangan tizimda sinash	0	1	10	11	100	101	110	111	1000	1001	1010	1011

Sakkizlangan tizimda sonlar ketma ketligini sinash va ularni o'nli sanoq tizimidagi ekvivalenti 1.10-jadvalda ko'rsatilgan. 1.9-jadvaldan sakkizlik sonlarni osongina ikkilangan sakkizli kodga o'tkazish mumkin. Misol. Sakkizlik son 147 ni kodlash uchun 22-jadvaldan foydalanib sakkizli son 1 ga mos 001 ni, 4 soniga mos 100 ni va 7 soniga mos 111 ni topamiz. Shuning uchun 147 soni ikkilangan-sakkizlik kodda quyidagicha yoziladi 00100111. Xuddi shuningdek sakkizli son 526 quyidagicha kodlanadi101010110.

Sakkizlik sistema sanog'i faqat raqamlarni kod bilan belgilab yozish uchungina qulay bo'lmay balki xarflar va boshqa istalgan belgilarni kod bilan belgilab yozish imkonini beradi. 1.11-jadvalda misol tariqasida xalqaro telegraf kodining bir qismi berilgan unda yetti razryadli guruh qo'llanilgan. Belgilar sonini yettitagacha kamaytirish imkoni shunday xosil bo'ldiki, bu kodga uchinchi razryadni o'ng tomonida ikkita sakkizli sonni bittasidan foydalaniladi- 0 yoki 1 bunga esa bittagina belgi talab etiladi, uchta emas(triada).

A xarfi sakkizlik kodda 141 (ikkilangan sakkizli kodda 1100001) n xarfi esa 160(1110000) 2 soni esa 062(0110010) (+) belgi 053(0101011)

1.11-jadval.

Xarf yoki belgi	+	,	.	0	1	2	3	a	b	ts	d	e	n
Sakkizli kod	053	054	056	060	061	062	063	141	142	143	144	145	160

Birorta xabarni yetkazish uchun keltirilgan ma'lumotlar yetarli, ma'lumotni xajmini xisoblash uchun bemalol tasavvurga ega bo'lamiz.

Misol uchun xalqaro kod bilan «Transformator № 2», uzatilayapti deylik. Unda ma'lumot hajmi 119 ta belgidan (13 xarf nomer belgisi), son va ikki ochiq joy-17. 17-gurux ikkilangan yettilik belgilardan iborat.

«transformator» so'zini Shenon-FENO kodi bo'yicha uzatilganda ikkili kodi bo'yicha uzatilganda ikkili belgilardan 58 ta kerak bo'ladi(91 ta emas yetti razryaddagi koddagi kabi). Aloqa kanallaridagi o'tkazish qobiliyatini yuksaltirish uchun aloxida xarflarni xabarlarda ko'pincha qaytariladigan so'zlar kodlanadi. Masalan so'z oxiridagi qo'shimchalar - «tsya», «ayet», «niye»; so'zlaridan kuchlanish, transformator va so'z birikmalari "transformator o'chirilgan", "ikkkinchi nasosni ulang" kabi, bu qo'llanilayotgan kodlarni samaradorligini oshiradi.

22-misol. Minutiga 100 ta 0 yoki 1 belgini uzata oladigan ma'lumot manbasi bor. Bu belgilarni aloqa liniyalarida uzatilayotganda buzib uzatish ehtimolligi p = 0,02 ga teng.

Aloqa kanalini o'tkazish qobiliyatini aniqlang.

Echish. Ilovadagi 7-jadvaldan $\eta(0,02) = 0,1128$; $\eta(1 - 0,02) = 0,0286$. ni aniqlaymiz. U xolda bitta belgini uzatishdagi ma'lumot yoqolishi

$\eta(r) + \eta(1 - r) = 0,1414$.

Kanalni o'tkazish qobilyati 3.39 formula bo'yicha quyidagiga teng:

$$C = N[1 - (\eta(p) + \eta(1-p))] = 100(1 - 0,1414) = 85,86 \approx 86 \text{ bit/min.}$$

Xuddi shunday xisoblash orqali bundanda murakkab xolatlar uchun kanal o'tkazish qobiliyatini xisoblash mumkin, yana elementar belgilar ikkidan ortiq bo'lganda va ba'zi aloxida belgilar o'zaro bog'liq bo'lganda xam. Agar aloqa kanalini o'tkazish qobiliyati (C) ma'lumot manbai entropiyasi N(X) dan kam bo'lsa, xabar uzatishni xar qanday kodlanganda uzatilayotgan xabar kechikib va ba'zi buzilishlar bilan uzatiladi. Agar kanal o'tkazish qobiliyati C > N (X), ma'lumot entropiyasidan katta bo'lsa istalgan uzun xabar xech qanday uzilishsiz, o'zgarishsiz uzatiladi.

23-misol. Tuman qishloq xo'jaligi boshqarmasidan vidoyat qishloq xo'jaligi boshqarmasiga kelayotgan ma'lumotlar eng katta tezligi 180 bit/min. Ikkita aloqa kanali bo'lib, xar biri bir minutda 100 ta ikkilik belgilar (0 yoki 1) uzata oladi. Uzatilayotgan signallarni aloqa kanalida buzilish ehtimoli p = 0,05. Ushbu kanallar hamma ma'lumotlarni to'xtovsiz uzata oladimi shuni aniqlash kerak.

Echish. Ma'lumot uzatilishida bitta belgini yo'qolishi (ilovadagi 7-jadvalga qarang)

$$\eta(p) + \eta(1-p) = 0,216 + 0,0703 = 0,286 \text{ bita.}$$

Ikkala kanalning maksimal o'tkazish qobilyati (vaqt birligida maksimal ma'lumotlar soni) (3.40) formulaga asosan

$$2C_1 = 2 \cdot 100(1 - 0,286) = 142,8 < 180 \text{ bit/min.}$$

Shunday qilib ikki kanalning o'tkazish qobiliyati ma'lumotni manbadan qabul qilayotganga uzatishda to'xtovsiz uzatish imkonini bermaydi. Kanallarning kerakli o'tkazish qobiliyati quyidagicha bo'lishi kerak.

$$\frac{180}{(1-0{,}286)} = 252 \text{ ikkilik belgi}$$

1.3. Ishonchlilik nazariyasiga oid misollar

24 – masala. Zavodda ishlab chiqarilgan $N_0 = 1000$ dona avtomatik uzgichni sinovdan o'tkazish kerak. Sinov vaqtida quyidagilar qayd etildi: $t = 3000$ soat davomida 1000 ta avtomatik uzgichdan 80 tasi ishdan chiqdi, $\Delta t = 3500 - 3000 = 500$ soat vaqt oralig'ida yana $\Delta n = 100$ ta avtomatik uzgich ishdan chiqdi.

3000 – 3500 soat ishlash vaqtidagi avtomatik uzgichlarning ishdan chiqish intensivligi (λ) va buzilmasdan ishlash ehtimolligini (P) toping?

Echish: 1. Avtomatik uzgichlarning 3000 – 3500 soat vaqt oralig'ida ishdan chiqish intensivligini quyidagi formula bilan xisoblaymiz.

$$\lambda = \frac{\Delta n}{N_{yp.m} \cdot \Delta t}; \qquad (1.24)$$

Bu yerda: $N_{yp.m}$ - Δt interval davomida ishlab turgan avtomatik uzgichlar soni.

$$\lambda = \frac{100}{(920-820)\cdot 0{,}5 \cdot 500} = 2{,}3 \cdot 10^{-4} (coam)^{-1}$$

2. Buzilmasdan ishlash ehtimolligini topamiz.

$$P_{(3250)} = \frac{N_0 - n(3500)}{N_0} = \frac{1000-180}{1000} = 0.82$$

Bu yerda: $n(3500)$ - 3500 soat ishlash vaqti davomida ishdan chiqqan avtomatik uzgichlar soni. 80+100=180 ta

25 – masala. Parrandachilik fermasida zaxira elektr ta'minlash manbai etib dizel elektr stansiyasidan foydalaniladi. Dizel elektr stansiyaning buzilishi intensivligi $\lambda = 0{,}0002 (coam)^{-1}$, qayta tiklanish o'rtacha vaqti $T_{k.m.yp} = 200$ soat, qayta ishlashga tayyorlik koeffitsiyentini ($T_{k.t.m}$) toping?

Echish: 1) Dizel stansiyaning buzilishidan oldin buzilmasdan ishlab berish o'rtacha vaqti:

$$T_{b.u.b} = \frac{1}{\lambda} = \frac{1}{0{,}0002} = 5000 \text{ soat.}$$

2) Stansiyani qayta ishlashga tayyorlik koeffitsiyentini topamiz:

$$T_{к.и.т.} = \frac{T_{б.и.б.}}{T_{б.и.б.} + T_{к.т.ур}} = \frac{5000}{5000 + 200} = 0{,}962$$

26-masala. 35 kV kuchlanish manbaiga ketma-ket ulangan nominal kuchlanishi 6 kV 6 ta kondensatorlardan tashkil topgan batareyani ishonchliligini aniqlang. Kondensatorlarning ishdan chiqish intensivligi $\lambda = 0{,}01\ (\tilde{u}ш)^{-1}$.

Echish. Batareyalarning ishdan chiqish intensivligini topamiz.

$$\lambda_б = \sum_{i=1}^{6} 0{,}01 + 0{,}01 + 0{,}01 + 0{,}01 + 0{,}01 + 0{,}01 = 0{,}06\,.$$

Yil davomida buzilmasdan (ishdan chiqmasdan) ishlash ehtimoli $P(t)$ ni topamiz.

$$P(t) = e^{-\lambda} = e^{-0{,}06} = 0{,}942$$

Ishdan chiqish (buzilish) ehtimoli

$$Q(t) = 1 - e^{-\lambda} = 1 - e^{-0{,}06} = 0{,}058\,.$$

Kondensatorlar batareyasiga, ishdan chiqish buzilish intensivligi $\lambda_{э.с} = 0{,}024$ ga teng, eruvchan saqlagich ulangan ushbu kompleksni (majmuani) ishdan chiqish (buzilish) intensivligi $\lambda_{маж.}$ quyidagicha aniqlanad.

$$\lambda_{маж.} = \lambda_б + \lambda_{э.с} = 0{,}06 + 0{,}024 = 0{,}084\,.$$

Majmuani 1 yil mobaynida buzilishsiz (ishdan chiqmasdan) ishlash ehtimolligini topamiz.

$$P_{маж.}(t) = e^{-\lambda_{маж.}} = e^{-0{,}084} = 0{,}919$$

Majmuani ishdan chiqish (buzilish) ehtimolligini topamiz.

$$Q(t) = 1 - e^{-\lambda_{маж.}} = 1 - e^{-0{,}084} = 0{,}081\,.$$

27-misol. Ketma ket ulangan va umumiy elektr zanjirini xosil qiluvchi ikki elementdan iborat tizim misolida bu zanjirni matematik modeli xolatini ko'rib chiqamiz.

$$Q(t) = 1 - [1 - q_1(t)][1 - q_2(t)]..[1 - q_n(t)] \qquad (1.25)$$

Sistemani to'xtab qolish ehtimoli

$$Q = 1 - p_1 p_2 = 1 - (1 - q_1)(1 - q_2) = q_1 + q_2 - q_1 q_2\,. \qquad (1.26)$$

To'xtab qolish ehtimolligi kam bo'lgani uchun, uni yakuniy xisoblarda xisobga olmasa xam bo'ladi.

U xolda n ta ketma-ket ulangan elementlarning to'xtab qolish ehtimolligi

$$Q \approx q_1 + q_2 + ... + q_n \qquad (1.27)$$

Bunday zanjir uchun to'xtab qolishlar oralig'idagi o'rtacha vaqt yoki to'xtab qolishgacha ishlash vaqti quyidagicha:

$$T_{cp} = \frac{1}{\lambda} = \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} \lambda_i} = \frac{1}{\frac{1}{T_1} + \frac{1}{T_2} + \ldots + \frac{1}{T_n}} \qquad (1.28)$$

Ikki elementli zanjir uchun $\lambda_1 = \lambda_2 = \lambda$

$$T_{cp} = \frac{1}{\frac{1}{T_1} + \frac{1}{T_2}} = \frac{T^2}{2T} = \frac{T}{2}, \qquad (1.29)$$

Ya'ni elementlar sonining o'sishi bilan to'xtab qolishlar orasidagi vaqt kamayib boradi.

28-masala. Chorvachilik ferma ulangan uzunligi 10 km 35 kV yuqori kuchlanishli xavo liniyasi, liniya boshidagi moyli uzgich va iste'molchi tomonda joylashgan ajratkich, saqlagich va troansformatorlardan tashkil topgan. Elektr ta'minot tizimi majmuani bir oy va 1 yil davomida buzilmasdan ishlash ehtimolligini toping.

Echish: 1. Ishonchlilik nuqtai nazaridan barcha ketma-ket ulangan elektrotexnik uskunalar o'zaro ketma-ket ulangan elementlardan tashkil topgan sxemani tashkil etadi.

Elektr uskunalar ishonchlilik ko'rsatkichlari jadvalidan ishdan chiqish intensivligini qabul qilamiz.

Moyli o'chirgich $\lambda_{m.y} = 0{,}002$; ajratkich $\lambda_{ajm} = 0{,}015$; transformator $\lambda_{mp} = 0{,}02$; havo liniyasi - $\lambda_{h.l} = 0{,}26$; eruvchan saqlagich - $\lambda_{s.s} = 0{,}01$.

2. Yuqoridagi ketma-ket elementlardan tashkil topgan tizimni (sistemani) ishdan chiqish intensivligini topamiz

$$\lambda_c = \lambda_{m.y} + \lambda_{ajm} + \lambda_{mp} + \lambda_{h.l} + \lambda_{s.s} = 0{,}002 + 0{,}015 + 0{,}02 + 0{,}26 + 0{,}01 = 0{,}307$$

3. Sistemani 1 yil davomida buztlmasdan (ishdan chiqmasdan) ishlashi ehtimolligini ($P(1{,}0)$) topamiz:

$$P(1{,}0) = e^{-\lambda_c t} = e^{-0{,}307 \cdot 1{,}0} = 0{,}75$$

4. Sistemani bir oy mobaynida buzilmasdan ishlash ehtimolligini xisoblaymiz:

$$P\left(\frac{1}{12}\right) = e^{-\lambda_c t} = e^{-0{,}307 \frac{1}{12}} = 0{,}779$$

29-masala. Nasos stansiyasi, ishdan chiqish oqimi parametri $\lambda = 0{,}05 \ \frac{1}{\text{йил}}$ bo'lgan ikkita parallel ulangan transformator orqali energiya bilan ta'minlanadi. Parallel ulangan ikkita transformator orqali energiya ta'minoti bitta transformator orqali energiya ta'minoti sxemasinikidan

keragida ishonchliligi qanchaga yuqori bo'ladi. (Ikkala transformator ham yakka o'zi nasos stansiyani energiya bilan ta'minlay oladi).

Echish: 1. Har bir transformatori 1 yil davomida buzilmasdan ishlash ehtimolligini aniqlaymiz:

$$P(1,0) = e^{-\lambda} = e^{-0,05} = 0,951$$

2. Ikkala transformatorni ham 1 yil davomida ishdan chiqish (ishlamay qolish) ehtimolligini topamiz:

$$Q(1,0) = q^2(1,0) = (1-\lambda)^2 = (1-0,951)^2 = 0,0024$$

3. Bitta transformatorni ishdan chiqish ehtimolligini topamiz:

$$P(t) = 1 - Q(t) = 1 - 0,0024 = 0,9976$$

Demak ikki transformatorli energiya ta'minoti ishonchliligi tizim bitta transformatorli tizim ishonchliligiga nisbatan 0,046 ga oshdi

$$(0,046 = 0,9976 - 0,951)$$

4. Ikkita parallel ulangan transformatordan tashkil topgan guruxni buzilishgacha ishlab qo'ygan o'rtacha vaqtini $T_{(yp)1,2}$ topamiz

$$T_{(yp)1,2} = \frac{3}{2\lambda} = \frac{3}{2 \cdot 0,05} = 30 \text{ yil}$$

5. Xar bir transformatorni buzilishigacha ishlab qo'ygan o'rtacha vaqti

$$T_{yp1} = T_{yp2} = \frac{1}{\lambda} = \frac{1}{0,05} = 20 \text{ yil.}$$

30-masala. Parrandachilik fabrikasi ikkita podstansiyadan ikki zanjirli 10 kV li liniya orqali energiya bilan ta'minlanadi. Birinchi liniyani o'tkazish qobiliyati - $S_1 = 0,7$, buzilmasdan ishlash ehtimolligi - $P_1 = 0,8$, ikkinchi liniyani o'tkazish qobiliyati $S_2 = 0,3$ buzilmasdan ishlash ehtimolligi - $P_2 = 0,9$.

Liniyani ishga tushishga tayyorlik koeffitsiyentini ($K_{t.m}$) toping.

Echish: Texnik ob'ektni ishga tushishga tayyorlik koeffiyentini topamiz:

$$K_{t.m} = P_1 q_1 S_1 + P_2 q_2 S_2 = 0,7 \cdot 0,8 + 0,8(1-0,8) \cdot 0,7 + 0,9(1-0,9) \cdot 0.3 = 0,72 + 0,056 + 0,054 = 0,83$$

Agarda ushbu liniyalarning ishonchliligi yuqori bo'lganida ($P_1 = 0,9$ va $P_2 = 0,8$) ishga tushishga tayyorlik koeffitsiyenti 0,87 bo'lar edi.

31-masala. Birinchi kategoriya elektr energiyasi iste'molchilari 1000 soat ishlash davrida buzilmasdan ishlash ehtimolligi 0,95 ga ya'ni $P(1000) = 0,95$ ga teng transformator podstansiyasidan energiya bilan ta'minlanishi kerak. Zaxira elektr ta'minoti uchun podstansiyaning ishonchliligiga teng ishonchlikdagi ya'ni $P_n(1000) = 0,95$ ishonchlilikdagi dizel elektr stansiyasi o'rnatilgan. Ushbu dizel stansiya asosiy podstansiyada nosozlik yuzaga kelib o'chirilganida ishga tushadi. Elektr

ta'minot tizimining buzilmasdan ishlash ehtimolligi va tizimni birinchi bor ishdan chiqishigacha (buzilishigacha) o'rtacha ishlash davomiyligini aniqlang.

Echish. 1. Ushbu masalani yechishni sistemani bir karrali (marotabali) zaxiralash sharti misolida ya'ni m=1 xil uchun ko'rib chiqamiz.

Buning uchun $P_c(t) = e^{-\lambda_0 t}(1+\lambda_0 t)$ formuladan foydalanamiz.

$$\text{Bu yerda } \lambda_0 t = 1 - e^{-\lambda_0 t} = 0{,}05$$

$$P_c(t) = 0{,}95(1+0{,}05) = 0{,}9975$$

2. Sistemada birinchi ishdan chiqish sodir bo'lguncha o'rtacha ishlash davomiyligini quyidagi formuladan topamiz.

$$T_c = T_0(m+1) = 2T_0 \qquad (1.30)$$

Sistemani t=1000 soat ishlash vaqti davomida $\lambda_0 t = 0{,}05$ ga teng bo'lgani uchun $\lambda_0 = 0.5 \cdot 10^{-4} coam^{-1}$ ga, sistemani bitta elementni birinchi bor buzilishigacha o'rtacha ishlash davomiyligi

$$T_0 = \frac{1}{\lambda_0} = \frac{1}{0.5 \cdot 10^{-4} \cdot coam^{-1}} = 20000 coam$$

Zaxira ta'minot tizim uchun esa

$$T_c = 2T_0 = 40000 coam$$

32-masala. Axoli yashash punkti xar birining ishdan chiqish buzilish intensivligi $\lambda = 0{,}1\frac{1}{yil}$ bo'lgan ikkita manbadan elektr energiyasi bilan ta'minlanadi. Iste'molchilar ikkala energiya manbai orqali energiya bilan ta'minlanayotganda (manbalar parallel ishlayotganda) va ikkinchi manba birinchisi buzilgandan keyin ishga tushganda 1 yil davomida ($t = 1$ yil) uzluksiz elektr ta'minoti ehtimolligi ($P(t)$) va buzilguncha ishlab berish o'rtacha vaqtini toping.

Echish. 1. Iste'molchi ikkita parallel elektr manbaidan (elektr tarmoqdan) energiya olayotgan bo'lsa uzluksiz energiya ta'minoti ehtimolligini P_t topamiz.

$$P_t(t) = 2e^{-\lambda t} - e^{-2\lambda t} = 2e^{-0{,}1} - e^{-2\cdot 0{,}1} = 1{,}8096 - 0{,}8187 = 0{,}9909$$

2. Buzilguncha ishlab berish o'rtacha vaqtini topamiz

$$T_{ip} = \frac{3}{2\lambda} = \frac{3}{2 \cdot 0{,}1} = 15 \text{ yil}$$

3. Birinchi energiya manbai ishdan chiqqandan (buzilgandan) keyin zaxiradagi ikkinchi energiya manbai ulanganda ta'minot tizimini uzluksiz energiya ta'minoti ehtimolligi $P_m'(t)$ va buzilishgacha ishlab berish o'rtacha vaqtini (T_{ip}') topamiz:

$$P_m(t) = e^{-\lambda_0 t}(1+\lambda_0 t) = e^{-0,1\cdot 1}(1+0,1\cdot 1) = 0,9955$$

$$T_{yp} = T_0(m+1) = \frac{1}{\lambda}(m+1) = 20 \text{ yil}$$

1.4. Ommaviy xizmat ko'rsatish nazariyasiga oid misollar

33-masala. Agroenergo servis korxona ko'chma tezkor brigadasining 7 soat ish mobaynida (t=7) 4 ta talabnoma (i=4) kelib tushgan. Sakkizinchi soat davomida yana bitta talabnoma tushish ehtimolligini aniqlang ($f_j(t)$).

Echish. 1. Talabnoma oqimi parametri λ ni topamiz.

λ - bir birlik vaqt davomida sistemaga kiritilgan talabnomalar sonining matematik kutilishidir.

$$\lambda = \frac{1}{m_m} = \frac{1}{\frac{t}{j}} = \frac{1}{\frac{7}{4}} = \frac{4}{7} = 0,57$$

2. Sakkizinchi soat davomida yana bitta talabnoma tushish ehtimolligini quyidagi birinchi tartibli Erlang qonuni tenglamasi bo'yicha topamiz.

$$f_j(t) = \frac{\lambda(\lambda t)^j}{j!}\cdot e^{-\lambda t} = 0,57(0,57\cdot 7)^4 \cdot e^{0,347} = 0,12$$

34-masala. Agroenergoservis korxonasiga tushayotgan talabnomalarni kuzatish natijasida korxonaga tushayotgan talabnomalar oqimi talabnomalar oralig'i vaqti intervali matematik kutilishi $m_t = 4\,min$ va dispersiyasi $D_t = 3,2 мин^2$ ekanligi aniqlangan. Ushbu talabnomalar oqimini xarakteristikasi aynan bir xil bo'lgan normallashtirilgan Erlang oqimiga almashtiring.

Echish. 1. Quyidagi formulalardan foydalanib talabnomalar soni matematik kutilishi normallashtirilgan Erlang oqimi tartibini topamiz.

$$\lambda = \frac{1}{m_t} = \frac{1}{4} = 0,2; \qquad j+1 = \frac{1}{D_t\cdot\lambda^2} = \frac{1}{3,2\cdot 0,063} = 4,9$$

Binobarin normallashtirilgan Erlang oqimi tartibi $j=4$ ya'ni talabnomalar xaqiqiy oqimi to'rtinchi tartibli Erlanch oqimi bilan almashtirsa bo'ladi.

To'rtinchi tartibli Erlang oqimi zichligini quyidagicha ifodalaymiz:

$$f_4(t) = \frac{(\lambda t)^j}{j!}\cdot e^{-\lambda t} = \frac{(0,25t)^4}{4!}\cdot e^{-0,25t} = 0,21 \quad (t>0)$$

Zichlikni maksimal qiymati $t = \frac{j}{\lambda} = \frac{4}{0,25} = 16\,min$ to'g'ri keladi va 0,21 ga to'g'ri keladi.

35-masala. Parrandachilik fermasida uchta texnologik liniyaga operator xizmat ko'rsatadi. Xar bir liniya bir sutkada 2 marta to'xtaydi. Sozlash uchun operator 60 minut vaqt sarflaydi ($t_{x.x} = 60мин$). Ommaviy xizmat ko'rsatish tizim (OXKT) xarakteristikalarini toping. Operatorni bandlik ehtimolligi (P_{band}), (smena davomida nosozliklar soni) tuzatib ulguradigan ish unumi (A) ta'mir talab nosoz liniyalar o'rtacha soni.

Echish: 1. Quyidagilarni aniqlaymiz: Nosoz bo'lgan (ob'ekt) n=3 – (uchta texnologik liniya);

voqeiylik xizmat ko'rsatish oqimi intensivligi $\mu = \frac{1}{t_{x.x}} = \frac{1}{60мин} = \frac{24}{1} = 24$;

Xar bir elementni nosozlik oqimi intensivligi $\lambda = 2$;

yuklama intensivligi $\rho = \frac{\lambda}{\mu} = \frac{2}{24} = \frac{1}{12}$.

2. Nosozlik yo'qligi ehtimolligini ($P_{n.b}$) topamiz:

$$p_{n.b} = \left[1 + n\rho + n(n-1)\rho^2 + n(n-1)(n-2)\rho^3 + ... + 1\rho^n\right]^{-1} =$$

$$= \frac{1}{1 + 3\cdot\frac{1}{12} + 3(3-1)\left(\frac{1}{12}\right)^2 + 3\cdot(3-1)(3-2)\left(\frac{1}{12}\right)^3} \approx 0,77$$

x_1, x_2, x_3 xolatlar ehtimolligi p_1, p_2, p_3 larni topamiz:

$$p_1 = n\cdot\rho\cdot p_{n.b} = 3\cdot\frac{1}{12}\cdot 0,77 = 0,192$$

$$p_2 = n(n-1)\cdot\rho^2\cdot p_{n.b} = 3\cdot(3-1)\left(\frac{1}{12}\right)^2\cdot 0,77 = 0,030$$

$$p_3 = n(n-1)(n-2)\cdot\rho^3\cdot p_{n.b} = 3(3-1)(3-2)\left(\frac{1}{12}\right)^3\cdot 0,77 = 0,0026$$

3. Operatorni bandlik ehtimollini topamiz:

$$P_{o.b} = 1 - p_{n.b} = 1 - 0,77 = 0,23$$

4. Operatorni smena davomida tuzatib ulguradigan nosozliklar sonini topamiz:

$$A = (1 - p_{n.b})\mu = (1 - 0,77)\cdot 24 = 5,5$$

36-misol. Davomiyligi o'rtacha 5 minut chaqiruvlar orasidagi oraliq 30 sek bo'lgan bir vaqtning o'zida 5 ta so'zlashuvni ta'minlay oladigan Agrotexservis ATSning ish xarakteristikasini topish.

SMO parametrlari: n = 5; $\lambda = \frac{60}{30} = 2$ min^{-1}; $\mu = 0,20$ min^{-1}.

Echish. Talabnoma oqim zichligiga keltirilgan kattalikni xisoblab topamiz :

$$\rho = \frac{\lambda}{\mu} = \frac{2}{0,2} = 10.$$

Tizimda talabnoma yo'qligi ehtimolini quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$p_0 = \frac{1}{\sum_{j=0}^{n} \frac{\rho^j}{j!}}; \qquad (1.31)$$

$$p_0 = \frac{1}{\sum_{j=0}^{n} \frac{\rho^j}{j!}} = \frac{1}{1 + \frac{10}{1!} + \frac{10^2}{2!} + \frac{10^3}{3!} + \frac{10^4}{4!} + \frac{10^5}{5!}} = 0,00068.$$

Kelgan talabnoma rad etilish ehtimolini quyidagi formuladan aniqlaymiz

$$P_{otk} = p_n = \frac{\rho^n}{n!} p_0 \qquad (1.32)$$

$$P_{otk} = p_n = \frac{\rho^n}{n!} p_0 = \frac{10^5}{5!} \cdot 0,00068 = 0,57.$$

Tizimning qiyosiy o'tkazish qobiliyati

$$q = 1 - P_{otk} = 1 - 0,57 = 0,43.$$

Absalyut o'tkazish qobiliyatini quyidagi ifoda orqali topamiz

$$A = \lambda q = \lambda(1 - P_{otk}) = \lambda(1 - p_n); \qquad (1.33)$$

$$A = \lambda q = 2 \cdot 0,43 = 0,86.$$

Band bo'lgan kanallarning o'rtacha soni

$$\bar{z} = \frac{A}{\mu} = \frac{\lambda(1 - p_n)}{\mu} = \rho(1 - p_n) \qquad (1.34)$$

$$\bar{z} = \rho(t - p_n) = 10(1 - 0,57) = 4,3.$$

$\frac{\lambda}{\mu}$ ifodani ba'zida yuklamani jadalligi xam deb ataladi.

37-misol. Agrofirma korxonasining elektr sexida elektr uskunalarini tuzatadigan 3 ta brigada bor. Ustaxonaga kelayotgan nosoz apparatlarning intensivligi (jadalligi) bir navbatchilikka (8 soat) 7 ta apparatni tashkil etadi ($\lambda = 7$). Bitta talabnomaga xizmat ko'rsatish vaqti o'rtacha 2,3 soat. Xizmat ko'rsatishni tezlashtirish uchun kanallar o'rtasida o'zaro yordam kiritish mumkin, ya'ni bitta tuzatish uchun bir yo'la uch yoki ikki tuzatish brigadasini jalb etish mumkin. Bunday o'zaro yordamni samaradorligini baxolash talab etiladi. Bunda navbatdagi talabnomalar soni, talabnomalarni navbatda turishining o'rtacha vaqti va xisobga olinishi zarur.

Echish. SMO o'zaro yordam olinmagandagi xolat uchun ko'rib chiqamiz.

$$n = 3; \quad \lambda = 7; \quad \mu = \frac{1}{t_{o6c}} = \frac{8}{2,3} = 3,5; \quad \rho = \frac{\lambda}{\mu} = 2; \quad \frac{\rho}{n} = 0,667.$$

$$p_0 = \frac{1}{\sum_{j=0}^{n} \frac{\rho^j}{j!}} \qquad (1.35)$$

formuladan x_0 ehtimollik xolatini topamiz.

$$p_0 = \frac{1}{1+\frac{\rho}{1!}+\frac{\rho^2}{2!}+\frac{\rho^3}{3!}} = \frac{1}{1+2+2+\frac{4}{3}} = 0{,}158.$$

Rad etish, ya'ni talabnoma navbatga qo'yilishi ehtimolligi,

$$P_{otk} = p_3 = \frac{\rho_3}{3!} p_0 = \frac{8}{6} \cdot 0{,}158 = 0{,}211.$$

Tizimni nisbiy o'tkazish imkoniyatini quyidagi formuladan aniqlayymiz

$$q = 1 - P_{otk} \qquad (1.36)$$

q=1-Potk=1-0,211=0,789.

Absalyut o'tkazish imkoniyatini quyidagi formuladan aniqlaymiz

$$A = \lambda q = \lambda(1 - P_{otk}) = \lambda(1 - p_n) \qquad (1.37)$$

$A = \lambda q = 7 \cdot 0{,}789 = 5{,}53$.

2. SMO to'liq o'zaro yordam ko'magidagi xolatni ko'raylik. Xar bir tizim uchun quyidagilarga ega bo'lamiz:

n*=1; $\lambda = 7$; $\mu^* = n\mu = 10{,}5$; $\rho^* = \frac{\rho}{n} = 0{,}667$.

Natijada:

$$p_0 = \frac{1}{1+\rho^*} = \frac{1}{1+0{,}667} = 0{,}6;$$

$$P_{otk} = p_1 = \rho^* p_0 = 0{,}667 \cdot 0{,}6 = 0{,}4;$$

$$q = 1 - P_{otk} = 1 - 0{,}4 = 0{,}6;$$

$$A = \lambda q = 7 \cdot 0{,}6 = 4{,}2;$$

$$\bar{t}_{ob} = \frac{8}{n\mu} = \frac{8}{3 \cdot 3{,}5} = 0{,}76 \text{ ч.}$$

Olingan natijalarni solishtirsak SMOni o'tkazish qobilyati o'zaro yordam kiritilganda kamayar ekan. Bunday bo'lishiga sabab rad etish ehtimolligini ortirishdir, ya'ni xamma kanallar boshqa talabnomalarga xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan paytda kelgan talabnoma rad etiladi va navbatga qo'yiladi. Xizmat ko'rsatish vaqti o'rtacha uch barobar kamayadi. O'zaro yordam kiritilganda SMOdagi talabnomalarni kutish xarakteristikasi qanday o'zgarishini aniqlaymiz.

1. SMO o'zaro yordamsiz xolatda

$\bar{k} = \frac{\rho^{n+1} p_0}{n! n} \cdot \frac{1}{(1-\rho/n)^2}$ navbatdagi turgan talabnomalarning o'rtacha soni:

$$\bar{k} = \frac{\rho^{n+1} p_0}{n! n (1-\rho/n)^2} = \frac{2^4 \cdot 0{,}158}{3! 3 (1-0{,}667)^2} = 1{,}26.$$

Talabnomalarni navbatda o'rtacha kutish vaqti quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{t}_{o.k} = \frac{\bar{k}}{\lambda} = \frac{\rho^2}{\lambda(1-\rho)} \qquad (1.38)$$

$$\bar{t}_{o.k} = \frac{\bar{k}}{\lambda} = \frac{1,26}{7} = 0,18 \text{ soat.}$$

Tizimda talabnomani o'rtacha bo'lish vaqti

$$\bar{t}_c = \bar{t}_{o.k} + \bar{t}_{o.b.c} = 0,18 + 2,3 = 2,48 \text{ soat.}$$

2. SMO o'zaro yordam ko'magida quyidagi formuladan $\bar{k} = \frac{\rho^2}{1-\rho}$ navbatda turgan talabnomalarning o'rtacha sonini topamiz:

$$\bar{k} = \frac{\rho^{*2}}{1-\rho^*} = \frac{0,667^2}{1-0,667} = 1,33.$$

Talabnomani o'rtacha kutish vaqti

$$t_{o.k} = \frac{\bar{k}}{\lambda} = \frac{1,33}{7} = 0,19 \text{ soat.}$$

Talabnomani tizimda o'rtacha bo'lish vaqti

$$t_c = t_{o.k} + t_{o.b.c} = 0,19 + 0,76 = 0,95.$$

Shunday qilib o'zaro yordam ko'magida bo'lgan tizimdagi navbatda turgan talabnomalarning o'rtacha soni va o'rtacha kutish vaqti o'zaro yordam ko'magida bo'lmagan tizimdagidan ko'pdir, talabnomalarni SMOda bo'lishini o'rtacha vaqti kamayadi xizmat ko'rsatishni tezlashtirish xisobiga.

SMO ishini yaxshilash uchun (rad etish ehtimolini kamaytirish uchun) bir me'yorda o'zaro yordam kiritish kerak bo'ladi. Bunda n-kanalli tizimda rad etish bilan bog'liq quyidagi xolatlar bo'lishi mumkin: x_o – tizim bo'sh (talabnoma yo'q); x_1 – bir dona kelgan talabnomaga n ta kanal xizmat qiladi; X_2 – ikkita kelgan talabnomaga n ta kanal xizmat qiladi ; ... ; x_n – xamma kelgan talabnomalarga n ta kanal xizmat ko'rsatadi.



1.4-rasm

Bu tizim bir kanalli SMOga o'xshash bo'lib talabnoma oqim tezligi λ, xizmat jadalligi nμ va navbatdagi o'rin soni n – 1ga teng. Shuning uchun bunday tizimning xarakteristikasi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$P_{amc} = p_{m+1} = \frac{\rho^{m+1}(1-\rho)}{1-\rho^{m+2}} \qquad (1.39)$$

$$A = \lambda q = \lambda(1 - P_{omk}) = \lambda(1 - p_n), \qquad (1.40)$$

bunda m o'rniga n – 1 ni qo'yib, ρ – ni ρ* = ρ /n = λ/nμ bilan ifodalasak quyidagiga ega bo'lamiz:

$$P_{omk} = \frac{(\rho^*)^n(1-\rho^*)}{1-\rho^{*n+1}} \quad \text{va} \quad q = \frac{1-\rho^{*n}}{1-\rho^{*n+1}}. \qquad (1.41)$$

Kanallar orasida o'zaro bir me'yordagi yordam bo'lmaganda va yordam bo'lgandagi SMO ko'rsatkichlarini xisoblaymiz.

1. SMO o'zaro yordamsiz xolatda: q = 0,789, A = 5,53, kanallarning o'rtacha bandligi r = A/μ= 5,53/3,5 = 1,58.

2. SMO bir me'yordagi o'zaro yordam xolatda ρ* = ρ /n =0,667.

$$q = \frac{1-\rho^{*n}}{1-\rho^{*n+1}}, \qquad (1.42)$$

$$q = \frac{1-0{,}667^3}{1-0.667^4} = \frac{0{,}703}{0{,}801} = 0{,}88.$$

$$A = \lambda q = 7 \cdot 0{,}88 = 6{,}15;$$

$$\bar{r} = \frac{A}{\lambda} = \frac{6{,}15}{3{,}5} = 1{,}76.$$

shunday qilib bir me'yorda o'zaro yordam kiritilganda tizimning o'tkazish qobiliyati oshadi va kanallar bandligi oshadi.

Deylik SMOda navbat ko'p, talabnomalar sonining maksimal sonini m deylik. Bu tizimning ehtimoliy xolati 5.6 paragrafda ko'rilgan xolatga o'xshash bo'ladi. Bir xolatdan ikkinchi xolatga o'tish ehtimollari 44-rasmda ko'rsatilgan . tizim talabnoma oqimi tezligi λ ni, xizmat ko'rsatish tezligi nμ va navbatda turish o'rinlarini n+m-1 ekanligini ko'rib chiqib bir kanalli SMO ga o'xshashligini ko'ramiz (5.6 paragrafga qarang). μ



1.5-rasm

Formulada $P_{omk} = p_{n+1} = \frac{\rho^{n+1}(1-\rho)}{1-\rho^{n+2}}$ va $A = \lambda q = \lambda(1 - P_{omk}) = \lambda(1 - p_n)$ m o'rniga

n + m – 1 ni ρ – ifoda o'rniga $\rho^* = \frac{\rho}{n}$, qo'yib quyidagi formulani xosil qilamiz:

$$P_{otk} = \frac{1-\rho^{*n+m}}{1-\rho^{*n+m+1}} \quad \text{va} \quad q = \frac{1-\rho^{*n+m}}{1-\rho^{*n+m+1}}. \tag{1.43}$$

O'zaro yordam borligida yoki yo'qligidagi absalyut va nisbiy o'tkazuvchanlik qobilyatini solishtirib ko'ramiz, agar navbatda turish o'rinlar soni m = 3 bo'lsa.

$q = \frac{1-\rho^{*n+m}}{1-\rho^{*n+m+1}}$ dan $q = \frac{1-\rho^{*n+m}}{1-\rho^{*n+m+1}} = \frac{1-0{,}667^6}{1-0{,}667^7} = \frac{0{,}912}{0{,}941} = 0{,}97$, ni aniqlaymiz.

$$A = \lambda q = 7 \cdot 0{,}97 = 6{,}8,$$

$$\bar{r} = \frac{A}{\mu} = \frac{6{,}8}{3{,}5} = 1{,}95.$$

Shunday qilib bir me'yorda o'zaro yordamni qo'llash kanallarini absalyut va nisbiy o'tkazuvchanlik qobilyatini oshiradi va bo'sh turib qolishini kamaytiradi.

38-misol. Berk elektr tarmog'i rejimini o'rganishda 100 marta hisob kitob qilindi. Xar bir hisoblashda tarmoq tugunidagi kuchlanish berilgan qiymatdan 10 % dan oshmagan qiymatda p = 0,1 (A-xodisa). A xolatda chastota P* ehtimollik p dan ε = 0,05 dan kam farq qilishini toping.

Echish. Quyidagi formuladan foydalanamiz

$$P\{|P^* - p| < \varepsilon\} = 2\Phi\left(\frac{\varepsilon\sqrt{N}}{\sqrt{p(1-p)}}\right) \tag{1.44}$$

$$P\{|P^* - 0{,}1| < 0{,}05\} = 2\Phi\left(\frac{0{,}05\sqrt{100}}{\sqrt{0{,}01(1-0{,}1)}}\right) = 2\Phi(1{,}67) = 0{,}905.$$

Masalani teskarisiga yechish xam katta qiziqish uyg'otadi. L xodisada chastotani berilgan qiymatdan chetga chiqishi ehtimollikdan (p)ε dan kam miqdorda.

Bu masalani yechishda avvalgi masaladagi shartlarni bir qancha o'zgarganini ko'rsatamiz. Ishonch darajasini maqsad qilamiz Q = 0,95, ε = 0,02 deb olamiz. formulani yozamiz

$$P\{|P^* - p| < \varepsilon\} = 2\Phi\left(\frac{\varepsilon\sqrt{N}}{\sqrt{p(1-p)}}\right) \text{ u xolda}$$

$$2\Phi\left(\frac{\varepsilon\sqrt{N}}{\sqrt{p(1-p)}}\right) = Q,$$

va quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\Phi\left(\frac{\varepsilon\sqrt{N}}{\sqrt{p(1-p)}}\right)=\frac{Q}{2}=0{,}475.$$

Ikkinchi ilovadagi jadvaldan Laplasning F(t) = 0,4750 funksiyasidagi argument qiymatiga mos bo'lib u 1.96 ga teng, $\frac{\varepsilon\sqrt{N}}{\sqrt{p(1-p)}}=1{,}96$, bundan

$$N=(1{,}96)^2\cdot\frac{p(1-p)}{\varepsilon^2}=(1{,}96)^2\cdot\frac{0{,}1\cdot 0{,}9}{(0{,}02)^2}=894.$$

Statistik sinovlar metodi ommaviy xizmat ko'rsatish tizimlarini tadqiq qilishda keng qo'llaniladi. SMO tizimini ekspluatatsiya qilishda favqulotda sodir bo'ladigan vaziyatlarni qayta ishlash, aks ettirish imkonini beradi va talabnomalar navbatini eksperemental aniqlash, xizmat ko'rsatish vaqti va shu kabi SMO ishining ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi.

1.5. Optimal boshqaruv nazariyasiga oid misollar

39-misol. Funksiyadagi funksiyani ekstremallashtirish qiymatini toping

$$\Phi=\int_0^3\left(x^2+2{,}5y^2+5x^2y'\right)dx. \qquad (1.45)$$

Echish. $\frac{\partial F}{\partial y}=5y$ ni aniqlaymiz va $\frac{\partial F}{\partial y'}=5x^2$ Eyler tenglamasini yechamiz.

$5y-\frac{d}{dx}(5x^2)=0;\quad 5u-10x=0,$

Bunda izlangan funksiya tenglamasi u = 2 x.

Bu tenglamani berilgan funksionalga qo'yib uning ekstremal qiymatini aniqlaymiz (y' = dy/dx = 2 ekanini xisobga olgan xolda)

$$\Phi=\int_0^3\left(x^2+10x^2+5x^2\cdot 2\right)dx=189.$$

40 – masala. 1.6. -rasmda keltirilgan qishloq podstansiyasini 10 kV shinasi 30 km masofada joylashgan tuman podstansiyasining 35 kV shinasidan AS-50 markali sim orqali energiya bilan ta'minlanadi. Ushbu elektr uzatish liniyasini quyidagi variantlarda amalga oshirish mumkin:

a) Energiya yetkazib beruvchi bitta liniya va bitta transformator (1.6.-rasm (a));

b) Energiya yetkazib beruvchi bitta liniya va ikkita transformator (1.6. -rasm (b));

v) Energiya yetkazib beruvchi ikkita liniya va bitta transformator (1.6.-rasm (v));

g) Energiya yetkazib beruvchi ikkita liniya va ikkita tarnsformator (1.6.-rasm (g)).

Elektr ta'minoti sxemasi elementlari ishonchliligi ko'rsatkichi λ 11.13-jadvalda keltirilgan. 1.6.-rasmda keltirilgan elektr ta'minot sxemalarni uzluksiz energiya bilan ta'minlash ehtimolliklarini aniqlang.

Echish: Elektr ta'minot tizimini 1 yilda buzilgan xolatda bo'lishi nisbiy vaqtini aniqlaymiz:

$$q = \sum_{i=1}^{n} \frac{\lambda_i \tau_{avi}}{8760} + \frac{\tau_{rsi}}{8760} \qquad (1.46)$$

λ_i - sxema elementlari ishonchliligi ko'rsatkichlaridan biri ishdan chiqish chastotasi (chastota yetkazuv) 11.10-jadvalda keltirilgan;

τ_{avi} - sxema elementlari nosozligini avariyadan keyin tuzatishga ketgan vaqti;

τ_{rsi} - sxema elementlarini ta'mirlash va sinash maqsadida planli o'chirilish vaqti davomiyligi.



1.6.-rasm. 35 kV tuman podstansiyadan 10 kV qishloq podstansiyasiga energiya uzatish liniyasini elektr sxemasi variantlari (a,b,v,g,).

1.12-jadval

Ishonchlilik ko'rsatkichlari	Sxema elementlari nomlari						
	Moyli uzgic	35 kV Xavo liniyas	Ajratkich	Qisqa tutashtargich	Transformator 35/10 kV	Moyli uzgic	Shina 10

	h 35 kV	i sim AC-50				h 10 kV	kV
λ_i, 1/yil. (1/100 km.yil)	0,02	0,8-1,0	0,03	0.03	0,01	0,005	0,03
τ_{avar} (soat/bitta buzi)	10	8	15	15	90	10	4
τ_{plan} (soat/100km yil)	10	90	10	10	20	18	4

Liniya rezervlanganda rejali ta'mirlash va sinash bilan bog'liq vaqt yuqoridagi formulada xisobga olinmaydi. Liniyada rezervlanganida avariya natijasida sxemadagi uzilish sodir bo'lish ehtimolligi formuladagi $\frac{\lambda_i \tau_{avi}}{8760}$ - nisbatni kvadrati bilan xisoblanadi.

λ_i , τ_{avi} , τ_{rzi} larni 11.10-jadvalda keltirilgan qiymatlarini formulaga qo'yib sxemani xar bir varianti uchun uni nosozliklar (ishdan chiqish, buzilish) ehtimolini q_i topamiz:

a sxema uchun:

$$q_a = \frac{\lambda_{sh.u(35)}\tau_{av.sh.u(35)} + \lambda_{x.l}\tau_{av.x.l} + \lambda_{ajj}\tau_{av.ajj} + \lambda_{k.m}\tau_{av.k.m} + \lambda_{tp}\tau_{av.tp} + \lambda_{sh(10)}\tau_{sh(10)} + \lambda_{shin}\tau_{avshin}}{8760} +$$

$$+ \frac{\tau_{pl.sh.u} + \tau_{x.l} + \tau_{ajj} + \tau_{k.m} + \tau_{tp} + \tau_{sh.u(10)} + \tau_{shin}}{8760} =$$

$$= \frac{0{,}02 \cdot 10 + 0{,}9 \cdot 8 + 0{,}03 \cdot 15 + 0{,}03 \cdot 15 + 0{,}001 \cdot 90 + 0.005 \cdot 10 + 0{,}03 \cdot 4}{8760} +$$

$$+ \frac{10 + 90 + 10 + 10 + 20 + 18 + 4}{8760} = 18.8 \cdot 10^{-3}$$

b-sxema uchun:

$$q_b = \frac{\lambda_{sh.u(35)}\tau_{av.sh.u(35)} + \lambda_{x.l}\tau_{av.x.l} + \lambda_{ajj}\tau_{av.ajj} + \lambda_{k.m}\tau_{av.k.m} + \lambda_{tp}\tau_{av.tp} + \lambda_{sh(10)}\tau_{sh(10)} + \lambda_{shin}\tau_{avshin}}{8760} +$$

$$+ \frac{\tau_{pl.sh.u(35)} + \tau_{x.l}}{8760} = \frac{4.08}{8760} + \frac{10 + 90}{8760} = \frac{104{,}8}{8760} = 11{,}4 \cdot 10^{-3}$$

v-sxema uchun:

$$q_v = \frac{4{,}08}{8760} + \frac{\tau_{ajj} + \tau_{k.m} + \tau_{tp} + \tau_{sh.u(10)} + \tau_{shin}}{8760} = \frac{4.08}{8760} + \frac{10 + 10 + 20 + 18 + 4}{8760} = \frac{4{,}08}{8760} + \frac{62}{8760} = 7{,}3 \cdot 10^{-3}$$

g-sxema uchun: $q_g = \frac{4.08}{8760} = 0{,}48 \cdot 10^{-6}$.

1.1- rasmdagi a, b, v, g sistemalarni buzilmasdan ishlash ehtimolligini P topamiz: $P = 1 - q$

$$P_a = 1 - q_a = 0{,}9812;\quad P_b = 1 - q_b = 0{,}9886;\quad P_v = 1 - q_v = 0{,}9927;$$

$$P_g = 1 - q_g = 0{,}99999947 \approx 1{,}0.$$

41-misol. Aytaylik 35/10 kV nimstansiyani 800x1100 m o'lchamdagi maydonga o'rnatish uchun xarajatlarni eng kam miqdorda keltirish sharti bilan joy tanlash kerak bo'lsin (50-rasm). Masalani soddaroq qilish uchun deylik cheklovlar yo'q (yoki joy tanlashning ikkinchi bosqichida xisobga olinadi). Nimstansiyada tanlangan joyga qarab 35 va 10 kV li liniyalarga keltirilgan xarajatlar xam o'zgaradi. Bu xarajat summasi maqsadli funksiya bo'lib qiymati (50-rasmda) izoliniyalar bilan ko'rsatilgan.

Echish. Nolga yaqinlashish joyi deb nimstansiya markazi kordinatalarini olamiz x°=0, y° = 550 m (a nuqtasi). Bu nuqta uchun keltirilgan xarajatlar summasi(maqsadli funksiya) nimstansiya joylashishiga qarab o'zgaruvchi,

F = 4400 rub./yil Endi x yoki u ni 50 m ga o'zgartirib ko'ramiz (x^1 = 50; u^1 = 500 m). Shunga munosib tarzda maqsad funksiya qiymati ham o'zgaradi ya'ni

4150 va 4350.

Maqsad funksiyani o'sishi vektor gradiyenti tarkibini aniqlaydi.

$$\frac{\partial F}{\partial x} \approx \frac{\Delta F}{\Delta x} = \frac{4150 - 4400}{50 - 0} = -5 \frac{pyб.}{m \cdot zoд};$$

$$\frac{\partial F}{\partial y} \approx \frac{\Delta F}{\Delta y} = \frac{4350 - 4400}{500 - 550} = +1 \frac{pyб.}{m \cdot zoд}.$$

Bu qiymatlar (*ab* va *av* 6-rasmdagi *b xolat*) gradiyent yo'nalishini (*ag*) va shuningdek antigradiyentni (*ad*) xam aniqlaydi.

Parametr qiymatini $\lambda = 12 \frac{m^2 \cdot zoд}{pyб.}$ deb olib $x_i^{k+1} = x_i^k - \left(\frac{\partial F}{\partial x_i}\right)_k \lambda$ formuladan

$$x^1 = x^0 - \left(\frac{\partial F}{\partial x}\right)_0 \lambda = 0 + 5 \cdot 12 = 60;$$

$$y^1 = y^0 - \left(\frac{\partial F}{\partial y}\right)_0 \lambda = 550 - 1 \cdot 12 = 538.$$



1.7-rasm

Gradiyentni aks ettiruvchi nuqta (antigradiyent yo'nalishida) e nuqtaga siljiydi. Faraz qilaylik nimstansiyani mumkin bo'lgan o'rni uchun maqsad funksiyani qiymatlari xisoblab chiqildi va maqsad funksiyani izoliniyasi qurildi deylik u xolda iteratsion jarayon davom ettirilsa ketma-ket aks ettiruvchi nuqtalar maqsad funksiya satx chizig'iga urinma xolda siljiydi. (*a e j i k* M). Minimum nuqtada gradiyent nolga aylanadi. 6-rasmda *n o p r s* M chizig'i nolga yaqinlashish kordinatalari $x^0 = 60$ m va $y^0 = 150$ m etib tanlangandagi aks ettiruvchi nuqtalar trayektoriyasi ko'rsatilgan.



1.8-rasm

Agar maqsad funksiyani yuzasini $y = 300$ m tekislik bilan kessak, unda 7-rasmdagi egri chiziqni xosil qilamiz. Aniq sharoitdan kelib chiqqan xolda Δx va Δy qadamlarini o'zgartirish mumkin. Dastlab iteratsiya jarayonini tezlashtirishi uchun katta qadamlar, so'ng qadamlarni maydalatish mumkin bo'ladi aniqlikni oshirish uchun.

42-misol. Uch noma'lumli ikki tenglama berilgan

$$2x_1 + x_2 - x_3 = 6; \quad -x_1 - x_2 + 2x_3 = 12.$$

Ko'pgina butun sonli manfiy bo'lmagan yechimlarni toping.

Echish. Erkin o'zgaruvchi sifatida x_3 ni olamiz va u orqali o'zgaruvchini negizini ifodalaymiz

$$2x_1 + x_2 = 6 + x_3; \quad -x_1 - x_2 = x_2 - 2x_3.$$

Bu tenglamalarni yechib quyidagiga ega bo'lamiz

$$x_1 = 18 - x_3; \quad x_2 = -30 + 3x_3.$$

Bundan ma'lum bo'ladiki o'zgaruvchan ifoda manfiy bo'lmaslik sharti ruxsat etilgan o'zgarish chegarasini belgilaydi:

$$x_3 \; 10 \le x_3 \le 18.$$

x_3 o'zgaruvchiga ko'rsatilgan chegarada butun qiymatlar berib mumkin bo'lgan butun sonli yechimlarni aniqlaymiz.

1.13-jadval

x_3	x_1	x_2
10	8	0
12	6	6
14	4	12
16	2	18
18	0	24

Erkin o'zgaruvchilar x_1 va x_2 ni o'zgaruvchan manbaning mos turli qiymatlariga bog'liqlik grafigini chizamiz (1.9-rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki birinchi kvartalda joylashgan to'g'ri chiziqni xosil qildik. $x_3 < 10$ yoki $x_3 > 18$ bo'lganda erkin o'zgaruvchilar qiymati manfiy bo'ladi, bu masala shartiga to'g'ri kelmaydi. 1.9-rasmda o'zgaruvchi manbaning ruxsat etilgan qiymatlari ko'rsatilgan. OZLP ni yechishdan maqsad yuqorida keltirilgan ruxsat etilgan yechimlarni eng maqbulini aniqlashdir. Buning uchun ko'rinishidagi berilgan koyeffitsiyent qiymatlariga ega maqsadli funksiya ifodasi kerak bo'ladi.



1.9-rasm

43-misol. Maqsadli funksiyani $L = x_1 - 2x_2 - 3x_3 - 4x_4$ ni minimal xolga keltiring. Quyidagi cheklovlar asosida:

$$x_1 + 2x_2 - x_3 - 2x_4 = 0,$$

$$x_1 - 2x_2 + x_3 \le 5,$$

$$x_2 - 3x_3 + x_4 \ge 12, \text{ bunda } x_j \ge 0 \ (j = 1, 2, 3, 4)$$

Echish. Qo'shimcha o'zgaruvchi kiritish bilan masalani OZLP ga keltirish mumkin.

U xolda cheklovlar quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi

$$x_1 + 2x_2 - x_3 - 2x_4 = 0,$$
$$x_1 - 2x_2 + x_3 - y_1 = 5,$$
$$x_2 - 3x_3 + x_4 + y_2 = 12,$$
$$x_j \geq 0,\ y_i \geq 0\ (j = 1, 2, 3, 4;\ \ i = 1, 2)$$

Masala davomi yuqorida ko'rsatilgan usulda yechiladi .

Chiziqli programmalashtirishda masalani simpleks usulida yechish. Simpleks usulining asosi shunga asoslanganki agar maqbul yechim mavjud bo'lsa uni albatta topish mumkin. Lekin erkin o'zgaruvchilarni turli variantlarini tanlashda kerakli miqdorda ketma-ketlik bo'lishi kerak. Erkin o'zgaruvchini biror qiymatini o'zgartirishda e'tiborli bo'lish kerak, chunki bu manba o'zgaruvchisini manfiy bo'lmagan shartini buzilishiga olib kelmasligi kerak.

44-misol. $L = 8x_1 + 3x_2 - 2x_3 + S$ maqsadli funksiyani minimal xolatga keltiring, agar quyidagi tengsizliklar ko'rinishida cheklov bo'lsa

$3x_1 + 2x_2 - x_3 + 2 \geq 0,$

$-4x_1 + 10x_2 + 3x_3 - 10 \geq 0,$

$x_1 \geq 0,\ x_2 \geq 0,\ x_3 \geq 0.$

Echish. Qo'shimcha manfiy bo'lmagan o'zgaruvchilar kiritamiz va tengsizlikni tenglikka aylantiramiz

$$y_1 = 3x_1 + 2x_2 - x_3 + 2,$$
$$y_2 = -4x_1 + 10x_2 + 3x_3 - 10.$$

$x_1 = x_2 = x_3 = 0$ da maqsad funksiya $L = S$.

$x_1 = x_2 = x_3 = 0$ ni y_1 va y_2 dagi negiziy o'zgaruvchilar o'rniga qo'yib $u_2 < 0$ ekanligini topamiz. Albatta bu yechimni qabul qilib bo'lmaydi manfiy bo'lgani uchun. Maqsadli funksiya ifodasida x_3 manfiy koeffitsiyent bilan kirgani uchun L ni kamaytirish uchun x_3 ni oshirish kerak. Bu o'zgaruvchi x_3 tenglama negizida u_1 manfiy ishorali bo'lgani uchun $u_1 > 0$ sharti bajarilmaslik xavfi tug'iladi. x_3 oshirilganda. Shuning uchun x_3 ni erkin o'zgaruvchilar qatoridan chiqarish va u_1 orqali ifodalash kerak bo'ladi. Unda erkin o'zgaruvchilar x_1, x_2, u_1 bo'ladi va cheklov quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$x_3 = 3x_1 + 2x_2 - y_1 + 2,$$
$$y_2 = -4x_1 - 10x_2 + 3(3x_1 + 2x_2 - y_1 + 2) = 5x_1 - 4x_2 - 3y_1 + 6.$$

U xolda maqsadli funksiya tenglamasi quyidagicha bo'ladi.

$$L = 8x_1 + 3x_2 - 2(3x_1 + 2x_2 - 2y_1 + 2) + C = 2x_1 - x_2 + 2y_1 - 4 + C.$$

Erkin o'zgaruvchilarga manfiy bo'lmagan minimal qiymatlarni beramiz

$x_1 = x_2 = u_1 = 0$ unda $L = S - 4$.

S - 4 < S bo'lsa, bu xozirda yaxshi variant. lekin x_2 qiymati oshganda maqsadli funksiya qiymatini keyingi kamayishi imkonini tekshirib ko'rish kerak.

x_2 qiymati o'sishi bilan u_2 ni noldan kamayib qolish xavfini yo'qotish uchun yangi erkin o'zgaruvchilar turkumi x_1 , u_1, u_2 ga o'tish kerak bo'ladi. Shu maqsadda tenglama negizi o'zgaruvchisi u_2 ni x_2 ga nisbatan yechamiz $x_2 = \frac{5}{4}x_1 - \frac{3}{4}y_1 - \frac{1}{4}y_2 + \frac{6}{4}$

va x_3 ni topamiz $x_3 = 3x_1 + \frac{5}{2}x_1 - \frac{3}{2}y_1 - \frac{1}{2}y_2 + 3 - y_1 + 2 = \frac{11}{2}x_1 - \frac{5}{2}y_1 - \frac{1}{2}y_2 + 5$.

Bu ikki ifoda o'zgaruvchan negizlar uchun yangi tur cheklov taqdim etadi. Topilgan cheklovlardan foydalanib maqsad funksiyasini yozamiz.

$$L = 0{,}75x_1 + 2{,}75y_1 + 0{,}25y_2 - 5{,}5 + C.$$

$x_1 = u_1 = u_2 = 0$ da $L = S - 5{,}5$.

Mana shu yechim eng maqbul yechim, chunki uchchala o'zgaruvchi maqsadli funksiya ifodasiga kiradi va musbat koeffitsiyentga ega. Simpleks-usulini qo'llashni osonlashtirish uchun algoritmlar ishlab chiqilgan, unda tenglamalardagi parametrlari jadval ko'rinishiga keltirilgan.

45-misol. 1.10-rasmda qishloq xo'jaligi uchun 10 kVli xavo elektr liniyasi qurilishining soddalashtirilgan tarmoqli grafigi qismi ko'rsatilgan. Ishlar ro'yxati 1.14-jadvalda berilgan. Grafik vaqt masshtabida tuzilgan. Gorizontal o'q bo'yicha ishning ish kunlari bo'yicha davomiyligi va kalendar bo'yicha ishni bajarish muddatlari ko'rsatilgan (besh kunlik ish kuni xisobida)



1.10-rasm. 10 kV XEUL da tarmoq grafigi.

Elektr liniyasi qurilishida bajariladigan ishlar ro'yxati

1.14-jadval

№ p/p	Ishlar kodi	Bajariladigan ishlar nomi	oldingi	Ishning davomiylig
1	0–1	Liniyani yo'nalishini belgilash va tayanchlar		4
2	0–2	o'rnini belgilab chiqish		5
3	1–3	Mexanizm va asboblarni tayyorlash	1	6
4	1–4	Tayanchlarni tarqatish	1	10
5	2–5	Tayanchlarni montaj qilish	1,2	8
		Tayanch osti poydevorini tayyorlash		
6	4–6		4,5	
7	4–7		4,5	
8	5–8		5	8
9	7–9	t	3,6,7	12

Echish. Ishlarning eng qisqa yo'li (0-2), (2-5), (5-8), (8-10) va (10-11). Grafikni taftish qilish va shuni ko'rsatadiki umumiy ishlar bajarish muddatini yerlash qurilmalarini montaj qilish muddatini (5-8-ishlar) qisqartirish xisobiga yoki kamaytirish mumkin. Agarda bu ishlar umumiy davomiyligi ikki kunga qisqartirsak, unda grafikda ikkita qisqa yo'l xosil bo'ladi. Agar uch kun yoki undan ko'proq qisqartirsak qisqa bo'lmagan yo'l (0-1), (1-4), (4-7), (7-9) xam qisqa yo'lga aylanadi. Tayanchlar yig'ish xisobiga (1-4 ishlar) umumiy muddatni qisqartirish faqatgina tayanch poydevorlarini tayyorlash muddatini (2-5 ishlar) qisqartirish bilan birga bajarilgandagina mumkin bo'ladi, chunki (5-4) chiziqlar shuni ko'rsatadiki tayanch o'rnatishdan oldin (4-7 ishlar) poydevori tayyor bo'lishi kerak. Shuni aytish joizki grafikdagi ishlar ketma ketligi va undagi sonlar shartli olingan.

46-misol. Ikki o'yinchi A va V bir vaqtda xar biri quyidagi sonlardan 1,2,3 birini yozsin deylik. Agar yozilgan sonlar yig'indisi juft bo'lsa V o'yinchi, agar toq bo'lsa, A o'yinchi V ga bu summani beradi. A o'yinchining eng yaxshi natija beradigan strategiyasini toping.

Echish. Bu o'yin ikki yurishdan iborat. Ikkala yurish xam shaxsiy. O'yin oldindan o'yin to'g'risida ma'lumot beriladigan o'yinlar turiga kirmaydi, chunki yurish vaqtida o'yinchi raqibi nima yozganini bilmaydi. O'yinchilarda uchta strategiya mavjud.

A_1, V_1 1 ni yozish uchun, A_2V_2 2 ni yozish uchun, A_3,V_3 3 ni yozish. Shunday qilib, bu o'yin 3 X 3 to'lov matritsali (42-rasm) A o'yinchini yutuqlari yoziladi.

Misol uchun agar A o'yinchi 2 ni yozsa (bu A strategiya) raqib 1 ni yozsa, unda ular yig'indisi toq bo'ladi va A o'yinchi yutqazadi. Shundan A_2V_1 katagidagi to'lov matritsasiga -3 elementi mos keladi.

1.15-jadval

Strategiyalar	V_1	V_2	V_3
A_1	2	-3	4
A_2	-3	4	-5
A_3	4	-5	6

Faraz qilaylik o'yin ko'p marotaba takrorlandi va A o'yinchi qandaydir bir strategiyada turib oldi. Unda bir necha yurishdan so'ng raqib payqab qoladi va A o'yinchi strategiyasiga o'ziga qulay yurishlar bilan (V_2 - A_1, V_3 -A_2, V_2 - A_3) javob beradi va A o'yinchi o'yinni boy berishi mumkin. Xuddi shunday xodisa agar A o'yinchi yurishlarini ma'lum tartibda almashib tursa xam ro'y berishi mumkin. A o'yinchi o'yinni boy bermaslik uchun qandaydir kutilmagan yurishlarni tanlashi kerak. Qanday chastotada strategiyani A_1, A_2, A_3 almashlab turishi kerakligi o'yin nazariyasidan topiladi deyish mumkin. O'yin nazariyasining maqsadi o'yinchilar va manfaatli xarakatlarni tavsiya etish boshqacha aytganda o'yinchi uchun eng maqbul strategiyani ishlab chiqish.

Optimal (eng maqbul) strategiya bu- shunday strategiyaki ko'p marta o'yin takrorlanganda xam o'yinchi uchun o'rtacha yutiqni maksimal imkoniyatlarini kafolatlay oladi.

Bunda o'yinning matematik modelini yaratganimizda raqibning xato tavakkal qilishlarini xisobga olmaymiz. Faraz qilamiz raqib xam o'ziga maqbul yo'lni tanlaydi, o'z maqsadi yo'lida raqibiga yetarlicha qarshilik ko'rsatadi.

47- masala. 110 – 35/10 kV rayon elektr stansiyaga ulangan iste'molchilarni iste'mol qilgan energiyasi 2003 yilda – 100 mln. kVt•s, 2005 yilda – 120 mln. kVt•s, 2008 yilda – 157,5 mln. kVt•s tashkil qilgan bo'lsa 2013 yilda taxminan qancha energiya iste'mol qilishini aniqlang.

Echish. $A_t = mt + nt^2 + lt^3$ ko'rinishdagi kvadratik ko'rinishdagi polinomdan foydalanib ko'rilayotgan davr oralig'idagi xar qanday yil uchun A_0, m va n larni parametrini topamiz.

2003 yil uchun $A_0 = 100$;
2005 yil uchun $A_2 = A_0 + 2m + 4n = 120$;
2008 yil uchun $A_5 = A_0 + 5m + 25n = 157,5$.
Ushbu tenglamalarni yechib A_t ni topamiz

$$A_t = 100 + 9t + 0,5t^2. \qquad (1.47)$$

Topilgan tenglamani yanagi 5 yilga ekstropolyatsiyalab ya'ni unga t = 10 ni qo'yib 2013 yilda kutilayotgan energiya iste'molini topamiz.

$$A_{10} = 100 + 9 \cdot 10 + 0,5 \cdot 10^2 = 240 \text{ mln. kVt} \cdot \text{s}.$$

Birinchi besh yilda energiya iste'moli oshishi (157,5– 100): 5 = 11,5 mln. kVt • s ni ya'ni oldingi besh yillikdagi energiyani 11,5 % ga to'g'ri keladi. keyingi besh yillikdagi o'sishni absolyut qiymati 16,5 mln. kVt•soatgacha ortadi va oldingi besh yillikdagi energiya iste'moli 10,5 % ni tashkil etadi. Olingan ko'rsatkichlarni 1 xonadon va 1 gektar yer maydonni energiya bilan ta'minlash bo'yicha tekshirib ko'rilishi kerak.

2. EKSPRIMENTAL TADQIQOTLARNI REJALASHTIRISH, O'TKAZISH VA NATIJALARI TAHLILI

2.1. Eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish va natijalariga ishlov berishni charvo mollari suyuq chiqindilarini ozonlash jarayoni misolida o'rganish

Chorva mollari chiqindilaridan ajratib olingan suyuq fraksiya tarkibida katta miqdorda mikroblar mavjudligi sababli ulardan o'g'it yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun ularni samarali zararsizlantirish usullardan biri ozonlash xisoblanadi. Eksperimental tadqiqotlar o'tkazishda o'rganilayotgan jarayon haqida kerakli ma'lumotlarni eksperiment o'tkazishga kam vaqt va mehnat sarflab erishish uchun tadqiqotlarni matematik rejalashtirish metodikasi qo'llaniladi. Eksperimental tadqiqot oldiga tashqi ta'sirlar va ob'ekt parametrlarini ishlov berish sifati bilan bog'lovchi jarayonining matematik modelini qurish vazifasini qo'yiladi.

Chorva mollari chiqindilarini ozonlash yo'li bilan to'la tozalash va zararsizlantirish jarayoni matematik modelni tuzish uchun, qo'yilgan talablarni hisobga olgan xolda, faktorlarni aniqlash kerak va ularni variatsiyalanish oraliqlari belgilanadi.

Aniq faktorlarni tanlashda ularga quyidagi talablar qo'yiladi [10, 7]:

1. Faktorlar boshqariladigan bo'lishi kerak, boshqacha aytganda faktorning aniqlik soxasi ichida ushbu faktorga xar qanday (daraja) qiymat berish va uni kerakli vaqt davomida bir xil darajada ushlab turish kerak.

2. Faktorlar ob'ektga bevosita ta'sir qiladigan bo'lishi kerak, ya'ni boshqa faktorlarning funksiyasi bo'lmasligi kerak. Faktorlarning bu xususiyati ularni bir ma'noligini ifodalaydi.

3. Faktor ko'rsatkichlarini o'lchov aniqligi optimallashtirish parametr kattaliklarini o'lchov aniqligidan yuqori bo'lishi kerak.

4. Faktorlar bir-biri bilan mos keladigan bo'lishi kerak. Bu degani, eksperiment ichida faktorlarni aniqlashda faktorni aniqlangan ichki ko'rsatkichlari ixtiyoriy ularning qiymatlari har qanday kombinatsiyasi va bir-biriga bog'liq bo'lmagan xolda mumkin.

Dastlabki olib borilgan tadqiqotlar va axborot manbalardan olingan ma'lumotlarga asoslanib ozonlash jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar etib quyidagilar olinadi: ozon bilan ishlov berish vaqti $(мин)$; suyuq

chiqindining xarorati (*градус*); ozon generatortga beriladigan havo sarfi (*литр/мин*) ; ozon generatirga beriladigan kuchlanish (*кВ*) ; ozonli-havoning tarkibidagi ozon konsentratsiyasi (*мг/литр*) ; 1 litr ishlov beriladigan oqava chiqindiga to'g'ri keladigan ozonning sarf me'yori (*мг/литр*) ; suyuq chiqindining tiniqligi (*см*) ; oqova chiqindidagi muallaq zarrachalarning boshlang'ich konsentratsiyasi chiqishi (*мг/литр*) ; oqova chiqindidagi boshlang'ich umumiy mikrobli zararlanish (1 *ml* dagi miqdori); muhitning pH i; ishlov berilayotganda oqava chiqindining balandligi (*м*); oqava chiqindidagi XPK va BPK miqdori ($мгO_2/литр$); oqava chiqindining koli-indeksi (*дона/литр*).

Ushbu ko'rsatkichlarni faktor sifatida ishlatish imkoniyati va maqsadga muvofiqligini tahlil qilamiz.

Azon konsentratsiyasi yoki uning o'lchami (dozasi) murakkab funksiya bo'lganligi sababli ularni faktor sifatida ishlatib bo'lmaydi:

konsentratsiya – bu kuchlanish va havo sarfi funksiyasi;

me'yor (doza) – konsentratsiya va ishlov berish vaqti funksiyasi.

Ushbu xolat esa yuqoridagi faktorga qo'yilgan 2 talabga javob bermaydi.

Faktorlarlar sifatida muallaq zarrachalarni ozon dozasini umumiy mikroblar sonini, XPK va BPK va koli-indeksini qo'llash talabi faktorlarga qo'yilgan 1 – talab bilan cheklanilgan. Ushbu kattaliklarga (faktorlarga) ixtiyoriy miqdorlar berib ma'lum vaqtda ularni bir xil ushlab turish amalda mumkin emas.

Chorva suyuq chiqindisida pH 6,8-8 intervalida o'zgarib turadi. pH ning ushbu intervalda o'zgarishi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib uni azonlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etmasligi aniqlangan [25].

Ishlov berilayotgan chorva mollari suyuq chiqindisi balandligini o'zgarishi tozalash va zararsizlantirishga mikroblarni o'ldirishiga emas uning ozonga sezgirligi foiziga ta'sir ko'rsatadi.

Qolgan faktorlarni quyidagicha tasniflash (klassifikatsiyalash) mumkin:

- chorva mollari suyuq chiqindisi holatini ko'rsatadigan faktorlar (temperatura va tiniqlik)

-tashqi ta'sir etuvchi parametrlarni birlashtiradigan faktorlar (kuchlanish, havo sarfi, ishlov berish davomiyligi).

Ushbu faktorlarning chegaraviy ko'rsatkichlari quyidagi talablarga asoslanib belgilanadi.

Chorva mollari suyuq chiqindisi temperaturasi qish faslida 6° gacha tushadi, yozgi vaqtda 22° gacha oshadi.

Tadqiqotlar davomida xaroratning ushbu ko'rsatkichlarigatishlov berilayotgan texnologik muxitni (suyuq chiqindi oqavani) sovutish va qizdirish yo'li bilan erishilgan.

Chorva mollari suyuq chiqindilarini dastlabki holatini ekspress-analizini o'tkazishda uning tiniqligi ko'rsatkichidan foydalanish mumkin. Oqovalarni biologik tozalashdan keyin uning tiniqligini oshishi organik ifloslanishini kamayganligini ko'rsatadi. Chorva mollarining suyuq chiqindilarida organik moddalar miqdorini kamayishi o'z navbatida oqavani bakterial ifloslanishini pasayishiga olib keladi. Chunki oqava tarkibida chiqarib tashlangan organik moddalar ularni ximoyalovchi muhit hisoblanadi. Oqovaning tiniqligi 2,5 dan 14 sm gacha tebranadi.

Kuchlanish 9700 V ga yetganida razryad hosil bo'ladi, 17500 V ga yetganda razryad dielektrikni teshib o'tadi. Ushbu kattaliklardan kelib chiqib kuchlanish qiymati pastki chegarasini 10 kV yuqori chegarasini 17 kV etib qabul qilamiz. Kuchlanish past bo'lganda ajralib chiqayotgan ozon miqdori kam bo'lishiga kuchlanishni o'ta yuqori bo'lishi esa energiya sarfini oshishiga olib keladi. Eksperimental tadqiqotlar oldiga kerakli konsentratsiyadagi ozon ishlab chiqishini ta'minlay oladigan shunday qiymatini tanlash kerakki bunda kuchlanishni minimal bo'lsin.

Ozonator orqali xarakatlanayotgan xavo miqdori kamaysa generator chiqishida ozon konsentratsiyasi oshadi, lekin ishlov berilayotgan mahsulot (material) bilan ozonli-havo muhitning aralashish samaradorligi kamayadi. Eksperimental tadqiqotlarda havo sarfi 5,4 dan 50 *литр/мин* gacha o'zgartirilgan. Xavodagi ozonning ma'lum bir konsentratsiya kuchlanishni va havo sarfini turli xil birikmalari kombinatsiyalariga to'g'ri kelishi mumkin.

Misol, 1 *l* ozon-havo aralashmasida 2,4 *mg* ozon konsentratsiyasini xosil qilish uchun kuchlanish va xavo sarfi quyidagi ikki xil kombinatsiyasida olish mumkin: $U_1 = 10{,}8 кВ$, $V_1 = 8 литр/мин$ va $U_2 = 16{,}5 кВ$, $V_2 = 46{,}4 литр/мин$ aralashma chiqishi mumkin. Tadqiqotlar olib borishda kuchlanish (U) va tezlikning (V) qiymatlari va nisbatlaridan foydalaniladi. Yuqoridagi taxlilni hisobga olgan xolda ikkita faktor o'rniga kuchlanish (U) va havo sarfi (V) ularning nisbati orqali bitta ko'rsatkich solishtirma kuchlanish orqali ifodalaymiz. Solishtirma kuchlanish 0,2-3,15 $кВ \cdot мин/литр$ intervalda o'zgaradi.

Yana bitta faktor bu ishlov berish davomiyligi. O'tkazilgan dastlabki eksperimental tadqiqotlarga asoslanib ishlov berish davomiyligini 5 dan 25 *min* gacha oraliqda olamiz.

Eksperimentni rejalashtirish tadqiqotning matritsasini tuzish uchun faktorlarni xaqiqiy qiymatlarini kodlangan (o'lchamsiz) qiymatlarga almashlash kerak. Faktorlarning xaqiqiy "x_i" va kodlangan x_i faktorlar quyidagi ifoda bilan o'zaro bog'langan:

$$x_i = \frac{X_i - X_{i0}}{\varepsilon} \qquad (2.1)$$

bu yerda: x_i - i fatorning kodlangan qiymatlari;

X_i – i faktorning tabiiy xaqiqiy qiymatlari;

X_i – i faktorning nolinchi darajasi tabiiy qiymatlari;

ε – faktorni ma'lum variatsion intervali.

Har bir faktorni kodlangan qiymatlarini xisoblaymiz, boshidan asosiy nolinchi daraja va variatsiyalash intervallarni boshlang'ich qiymatlarini belgilab va olingan natijalarni 2.1-jadvalga kiritamiz.

2.1-jadval

Faktorlarni kodlar bilan ifodalash

Variatsiyalash intervali va faktorlar darajasi	Ishlov berish vaqti, *min*, x_1	Solishtirma kuchlanish, $кВ \cdot мин/литр$ x_2	Oqovaning (chiqindining) xarorati, x_3	Tiniqlik, $(см)$ x_4
Nolinchi daraja $x_{i0} = 0$	10	1.6	12	8
Variatsiyalash intervali	2	0.2	2	2
Pastki daraja $x_i = -1$	8	1.4	10	6
Yuqori daraja $x_i = +1$	12	1,8	14	10

To'liq faktorli eksperiment o'tkazish uchun kamida 5 marotaba takrorlanish shartiga binoan tajribalar o'tkazish kerak / 3.3-ilova / :

$$mN = m2^K = 5 \cdot 2^4 = 80$$

bu yerda: m – takrorlanadigan tajribalarni soni;

N – takrorlanmaydigan tajribalar soni;

2 – faktorlarning darajalar soni (yuqorigi va pastki);

K – faktorlar soni.

Tenglamani quyidagi ko'rinishda ifodalab ko'ramiz:

$$y = b_0 + b_1x_1 + b_2x_2 + b_3x_3 + b_4x_4 + b_{12}x_1x_2 + b_{13}x_1x_3 + b_{14}x_1x_4 +$$
$$+ b_{23}x_2x_3 + b_{24}x_2x_4 + b_{34}x_3x_4 + + b_{123}x_1x_2x_3 + b_{124}x_1x_2x_4 + \quad (2.2)$$
$$+ b_{134}x_1x_3x_4 + b_{234}x_2x_3x_4 + b_{1234}x_1x_2x_3x_4$$

Kasr faktorli eksperiment (KFE) usulini qo'llanilsa tajribalar sonini minimallashtirish imkonini beradi [7]. Kasr faktorli eksperiment bu to'liq faktorli eksperimentni ma'lum bir qismi. Bizning misolimiz uchun KFE 2^{4-1}, bu to'liq faktorli eksperimentga mos kelmoqda (TFE) 2^3.

Yuzaga keltiruvchi (generatsiyalovchi) nisbatlarni tanlaymiz: $x_4 = x_1x_2x_3$ va unga asosiy keskin farqni topamiz $I = x_1x_2x_3x_4$ va shuningdek regressiya koyeffitsiyentlarini umumiy baxolashni aniqlovchi nisbatlarni topamiz:

$x_1 = x_2x_3x_4$; $x_3 = x_1x_2x_4$; $x_2 = x_1x_3x_4$; $x_4 = x_1x_2x_3$

$x_1x_2 = x_3x_4$; $x_2x_3 = x_1x_4$ $x_1x_3 = x_1x_4$;

Eksperiment natijalari bo'yicha jarayonning matematik modelini quyidagicha ifodalaymiz.

$$y_I = b_0^I + b_1^Ix_1 + b_2^Ix_2 + b_3^Ix_3 + b_4^Ix_4 + b_{12}^Ix_1x_2 + b_{13}^Ix_1x_3 + b_{23}^Ix_2x_3 \quad (2.3)$$

$$y_{II} = b_0^{II} + b_1^{II}x_1 + b_2^{II}x_2 + b_3^{II}x_3 + b_4^{II}x_4 + b_{12}^{II}x_1x_2 + b_{13}^{II}x_1x_3 + b_{23}^{II}x_2x_3 \quad (2.4)$$

bu yerda: y_I, y_{II} - suyuqlikdagi muallaq moddalar va mikroblar umumiy soni (MUS).

Eksperiment natijalari asosida aniqlangan model koeffitsiyentlari xaqiqiy chiziqli effektlar va birgalikdagi o'zaro ta'sirlar baxolaydi.

$b_1 \to \beta_1 + \beta_{234}$; $b_2 = \beta_2 + \beta_{134}$; $b_3 \to \beta_3 + \beta_{124}$; $b_4 = \beta_4 + \beta_{123}$;

$b_{12} = \beta_{12} + \beta_{34}$; $b_{13} = \beta_{13} + \beta_{24}$ $b_{23} = \beta_{23} + \beta_{14}$.

Yuqoridagi model tenglamasi koeffitsiyentlaridan chiziqli effektlar koeffitsiyentlarni baholari eng katta o'zaro ta'sirlar effektlar koeffitsiyentlarini baholanishi bilan o'zaro bog'liqligini ko'ramiz (yuqoridagi misol uchun uch marotabali o'zaro bog'lanish). Bu esa uch marotaba o'zaro ta'sir koeffitsiyentlarini minimal deb xisoblab chiziqli koeffitsiyentlarni imkon darajasidagi eng yuqori aniqlikdagi bahosini topish imkonini beradi.

Uchta o'zaro ta'sirlari (faktorlarni) x_1 x_2 x_3 o'rniga x_4 faktorni qabul qilib tajribalar ketma-ket almashinishini hisobga olgan holda matritsasini tuzish mumkin 2^{4-1} (3.2-ilova).

Eksperiment matritsasini tuzishdan oldin tajribalar o'tkazishda yuzaga kelishi ehtimol bo'lgan sistematik xatoliklarni tajribalarni randomizatsiyalash yo'li bilan yo'q qilish kerak. Ushbu xatoliklar o'lchash priborlarda, tadqiqotchining e'tiborsizligida yuzaga kelishi mumkin.

Randomizatsiyaning mazmuni shundaki tajribalar tartibini tasodifiyligini yuzaga keltirish kerak va buning uchun tasodifiy sonlar jadvalidan foydalaniladi [10].

Tajribalar o'tkazish tasodifiy qator eksperiment matritsasiga joylashtiriladi (8-jadval).

Tadqiqot natijalarini o'rtachasini topish uchun qo'pol xatoliklarni aniqlash usulidan foydalaniadi [26].

Olingan hisob natijalari 3.4 va3.5 ilovalarda keltirilgan.

(2.3) va (2.4) tenglamalar tarkibidagi koeffitsiyentlar quyidagi formulalardan foydalanilib xisoblanadi [27]:

$$b_0 = \frac{\sum_1^n \overline{y_u}}{n} \qquad (2.5)$$

$$b_{ij} = \frac{\sum_1^n x_{iu} x_{ju} \overline{y_u}}{n} \qquad (2.6)$$

$$b_i = \frac{\sum_1^n x_{iu} \cdot \overline{y_u}}{n} \qquad (2.7)$$

Koeffitsiyentlarni xisoblangan qiymatlari 2.6- ilovada keltirilgan.

Regressiya koeffitsiyentlari monandligi Styudent kriteriyasi bo'yicha baxolanadi. Quyidagi shart bajarilsa:

$$|b_i| \geq \Delta b_i = t_{(0,05;f\{y\})} \frac{S_{\{y\}}}{\sqrt{nm}} \qquad (2.8)$$

Koeffitsiyentlar monand deb hisoblanadi [34],

bu yerda $t_{(0,05;f\{y\})}$ - Styudent kriteriysining jadval bo'yicha qiymati, 8 adabiyotning 3 ilovasidan olingan;

$f\{y\}$ - dispersiyani tiklanishini (qaytarilishini) ozodlik darajasi soni;

$S_{\{y\}} = \sqrt{\frac{\sum_1^n f_i S_i^2}{\sum_1^n f_i}}$ - o'rtacha kvadratik og'ish.

(7.17) tenglama uchun $b_3^I; b_{12}^I$ va b_{13}^I lardan tashqari barcha koeffitsiyentlar monandligi ishlatiladi. (7.18) tenglamada $b_3^{II}; b_{12}^{II}; b_{13}^{II}$ va b_{23}^{II} koeffitsiyentlar monand emasligi aniqlandi.

(7.17 va 7.18) modellarni adekvatligi (mosligi) Fisher kriteriysi bo'yicha tekshiriladi [27].

$$F = S_{ad}^2 / S_{\{y\}}^2 \leq F_{(0,05;f_{ad};f\{y\})} \qquad (2.9)$$

Dispersiyani adekvatligi (mosligi) ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{ao}^2 = \frac{\sum^{n}\left(\bar{y} - \hat{y}\right)^2}{f_{ao}} \qquad (2.10)$$

bu yerda: f_{ao} - to'g'rilangan dispersiya adekvatligi ozod erkinlik darajalar soni;

$\hat{y}$ - model bo'yicha aniqlangan qiymatlar.

Hisoblar natijasi ikkala matematik modellarni adekvatligi tasdiqladi (3.5- 3.7- ilovalar).

2.2-jadval

Eksperiment matritsasi- umumiy rejasi

№	Tajribaning tasodifiy natijalari					x_0	$x1$	$x2$	x_3	x_4	x_1x_2	x_1x_3	x_2x_3	$\bar{y}_I$	$\bar{y}_{II}$
1	32	8	5	34	35	+	-	-	-	-	+	+	+	404,0	46900
2	13	16	7	14	26	+	+	-	-	+	-	-	+	201,0	17110
3	4	25	21	38	17	+	-	+	-	+	-	+	-	201,6	18480
4	3	24	30	29	6	+	+	+	-	-	+	-	-	325,2	27400
5	23	27	10	22	11	+	-	-	+	+	+	-	-	256,0	21850
6	40	39	2	36	33	+	+	-	+	-	-	+	-	334,8	33112
7	15	19	12	1	37	+	-	+	+	-	-	-	+	397,0	36412
8	18	9	31	20	28	+	+	+	+	+	+	+	+	149,6	13148

Shunday qilib, eksperimental tadqiqotlar va ularni natijalariga ishlov berilgandan so'ng quyidagi modellar olinadi:

$$y_I = 283{,}65 - 52{,}6x_1 - 18{,}3x_2 - 81{,}6x_4 + 34x_2x_3 \quad (2.11)$$

$$y_{II} = 26801{,}5 - 4109x_1 - 2941{,}5x_2 - 9154{,}5x_4 \qquad (2.12)$$

Jarayonni optimallashtirish bitta parametr bo'yicha oshiriladi. Biz o'rganayotgan chorva mollari suyuq chiqindilarini zararsizlantirish jarayoni uchun mahsulotni o'ziga xos tomonini hisobga olib, ikkinchi ko'rsatkichni - y_{II} umumiy mikroblar sonini optimallashni qabul qilamiz.

Optimal shartni topishda ko'rilayotgan jarayon keskin yuksalish usulni qo'llash mumkin [27]. (7.24) tenglamadan foydalanib, gradiyent bo'yicha harakatlantiramiz. Tadqiqot natijalri 7.5-jadvalda keltirilgan. Keskin yuksalish ushbu funksiyani gradiyenti bo'ylab xarakatlanishni ifodalaydi.

$$grady_{II} = b_{1i} + b_{2j} + ... + b_{KZ} \qquad (2.13)$$

Faktorlarni regressiya tenglamasi y_{II} koeffitsiyentlariga proporsional holatda o'zgartirib optimumga eng qisqa yo'l bilan erishishga intilamiz. 9- jadvalda $b_i\varepsilon_i$ ning eng katta qiymatiga ega faktor uchun k_i ning qiymatini birga teng deb qabul qilib qolgan, x_i - uchun quyidagi nisbatdan topamiz: $K_i = |b_i\varepsilon_i| / |b_i\varepsilon_i|_{max}$.

2.3 - jadval

Keskin ko'tarilib boruvchi usulda tadqiqotlar natijalari

Gradiyent bo'yicha harakat bosqichlari	x_1	x_2	x_3	y_{II1}	y_{II2}	y_{II3}	y_{II4}	y_{II5}	Qo'pol xatolik	y_{II}
Nolinchi daraja	10	1,6	8							
Interval o'zgarish oralig'i	2	0,2	2							
Regressiya koeffitsiyenti	4109 8218	2941 588	9154 18308							
Harakat qadami	0,448 0,896	0,032 0,064	1 2							
Yaxlitlangan qadamlar	1	0,11	3							
Tadqiqotlar:										
Xayolan	11	1,9	10							
Xayolan	12	2	12							
Bajarilgan	13	2,1	14	2100	5100	7900	6000	25000	25000	5275
Xayolan	14	2,2	14							
Bajarilgan	15	2,3	14	200	500	300	229	400		326
Xayolan	16	2,4	14							
Bajarilgan	17	2,5	14	101	70	170	115	3	3	114

$K_i = 1$ li faktor uchun gradiyent bo'yicha yangi xarakat interval tanlanib qolgan faktorlar uchun ε^* qiymatini ushbu intervalni unga mos K_i ga ko'paytirish yo'li bilan topiladi. y_{II} model adektiv bo'lgani uchun, navbatdagi eksperimentlarni faktorlardan biri o'zgarish intervali chegarasidan chiqib ketishi namoyon bo'ladigan tajribadan boshlanadi. Bizning misolda x_2 ni (solishtirma kuchlanish) samarador hisoblanadi, shuning uchun birinchi tajribada keskin yuksalishni

$X_2 = 1{,}9 кВ \cdot мин/литр$ deb qabul qilamiz. Qolgan faktorlarni qiymati nolinchi darajaga xarakat qadamini qo'shish yo'li bilan topiladi. Qadamma-qadam xarakatlanish jarayoni javob funksiyasi qiymati boshqalarga nisbatan ancha kichik bo'lib qolganida to'xtatiladi (bizning misolda 5-tajribaga to'g'ri keladi).

Shunday qilib, ozon qurilmasining parametrlari $\tau = 15 мин$ va $U/V = 2{,}3 кВ \cdot мин/литр$ oqova massa $ГТ_р = 14 см$ bo'lganda, $УМС = 326 дона/мл$ ni tashkil etadi va bunga $B_{ш.з} = 28 мг/литр$ to'g'ri keladi. ($B_{ш.з}$ - oqava massadagi muallaq zarrachalar miqdori).

$ОМЧ = 326 дона/мл$ va $Взв = 28 мг/литр$ kabi qiymatida optimal muhit o'rnatilgan bo'lishi kerak, o'zaro nisbatlardan organik va biologik zararlanishni eng kichik darajasi hisoblanadi [34,35].

Xulosalar:

1. Chorva mollari suyuq chiqindilarini tozalashda va zararsizlantirishda ozonlashni qo'llash yuqori samara beradi. Ishlov berish davomiyligi 15 *min* (beriladigan ozon dozasi $200 г/м^3$) $БПК_5$ $97 мг O_2/литр$ dan $27 мг O_2/литр$ gacha kamayadi, koli-titr ko'rsatgichi 0,04 dan 4,3 gacha ortadi.

2. Ozonlashni oqavalarga ishlov berishni oxirgi bosqichda o'tkazish ma'qul hisoblanadi. Shunda oson parchalanadigan organik ifloslanish biologik yo'l bilan yo'qotiladi, qiyin oksidlanadiganlarini esa – ozonlash bilan tozalanadi.

3. Chorva mollari chiqindilarini suyuq qismini tozalash va zararsizlantirish jarayonini nazorat qilishda, muallaq zarrachalar miqdori va umumiy mikroblar sonini (UMS) kamaytirishda ozonlash eng qulay hisoblanadi.

4. Oqovalarni ozonlash jarayoniga optimallashgan parametrlar $Взв = 28 мг/литр$, $ОМЧ = 326 дона/мл$: ishlov berish vaqti 15 *min*; solishtirma kuchlanish $2{,}3 кВ \cdot мин/литр$; tiniqligi 14 *sm*.

Oqovani temperaturasi ishlov berishda ozonlashga ta'sir etmaydi.

Oqova tarkibida quyidagilar bo'lgan:

suzib turgan modda (zarracha) lar miqdori 420 yo $100 мг/литр$;

umumiy mikroblar soni $350 \cdot 10^3 \pm 250 \cdot 10^3 дона/мл$.

2.2. Optimallashtirishga oid eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish, o'tkazish va ishlov berishni uzum mevasiga quritishdan oldin elektr impulsli ishlov berish jarayonida o'rganish

Uzum mevasini quritish jarayoni vaqtini (davomiyligini) va energiya sig'imini kamaytirishga erishish uchun quritishdan oldin unga ishlov berishni ko'plab usullari mavjud. Ular orasida eng samarador va texnologik talablarga javob beruvchi zamonaviy usul bu elektr impulsli ishlov berish /29/. Elektr impulsli ishlov berish jarayonini kechishi (qonuniyati) va eng maqbul parametrlarini aniqlash uchun nazariy-eksperimental tadqiqotlar olib boriladi.

Elektr ishlov berish jarayonining samaradorligini bevosita baxolashni keng foydalanib kelinayotgan usullaridan biri elektr ishlov berilayotgan mahsulot (muxit) to'qimalari xujayralarining elektr o'tkazuvchanligi orqali baxolashdir. Bu usulda dielektrik materialga bir-biridan 10 mm masofada o'rnatilgan ignasimon zanglamaydigan elektrodlarni mahsulot to'qimalariga kiritilib unga 10^3Gts chastotali 4-5 V kuchlanish manbaiga ulab to'qimalar orqali oqib o'tayotgan tok kuchi va berilgan kuchlanish bo'yicha uning to'la qarshiligi topiladi. Jonsizlanish darajasini (S) uzum mevasini ishlov berishdan oldingi va ishlov berilgandan keyingi to'la qarshiliklari bo'yicha xisoblanadi. Ammo bu ko'rsatkich xar xil uzum navlari mevalarining biologik xususiyati, kimyoviy tarkibi va boshqa xarakteristikalari bir-biridan farq qilish sababli xar xil qiymatlarga ega bo'lishi mumkin va bunday xolatda "S" ning bir xil qiymati turli xil nav uzum mevalari xolatini adektiv baxolay olmasligi sababli tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish imkonini bermaydi. Ushbu ko'rsatkichning "S" turli nav uzum mevalari uchun kritik qiymat S_{max} xam xar xil bo'ladi. Qora kishmish uchun 23 n. b. Nimrang toyfi uchun 16 n.b. va xokazo. Ishlov berish jarayonida impulslar soni va boshqa parametrlarni o'zgartirib borib "S" ni joriy ko'rsatkichini uning kritik qiymatiga (S_{max}) bo'lib foiz xisobida qiymati $S = \frac{S^i}{S^i_{max}}$ bo'yicha elektr ishlov berishni asosiy parametrlari U, C, n ta'sirini eksperimental o'rganib chiqib $S = f(U, C, n)$ bog'liqlik grafigini ifodalaymiz.



2.1-rasm. Turli nav uzum mevasi to'qimalarini jonsizlanish darajasini elektr impulsli razryadlar soniga bog'liqlik grafigi
○- qora kishmish; ●- oq kishmish; ■- toyfi; ▲- muskat; x- nimrang.

1 – U = 4 kV; S = 0,77 mkF;
2 – U = 2 kV; S = 0,77 mkF;
3 – U = 3 kV; S = 0,77 mkF;

2.1–rasmda keltirilgan $S = f(U, C, n)$ grafik tasvirni analitik ifodalash va elektr ishlov berish jarayoni optimal parametrlarini aniqlashda ko'p faktorli eksperimentlarni rejalashtirishni matematik nazariyasidan foydalanamiz.

Optimallashtirish maqsadi uzum mevasi donalari qobig'ini mexanik shikastlantirmasdan uning to'qimalaridagi xujayralarini jonsizlantirishni yuqori darajasiga eng kam energiya sarflab erishishni ta'minlaydigan elektr impulsli ishlov berish jarayoni parametrlarini aniqlash xisoblanadi. Optimallashtirish kriteriyasi (me'zoni) etib uzum mevasi to'qimalari xujayralarini nisbiy jonsizlanish darajasini qabul qilamiz ($S = \frac{S'}{S'_{max}}$). Quyidagi misolda toyfi navli uzumning mevasini quritishdan oldin elektr impulsli ishlov berish jarayonini optimal parametrlarini aniqlashni ko'rib chiqamiz.

Eksperimental tadqiqotlar asosida jarayonni kechishini belgilovchi asosiy faktorlar va ularning o'zgarish darajalarini (chegaralarini) qabul qilamiz (2.4-jadval).

Faktorlar va ularning chegaralari (darajalari)

2.4-jadval

Faktorlar	Faktorlarni belgilanishi		O'lchov birligi	Darajasi (o'zgarish chegarasi)		
	natural	Kodlangan		- 1	0	+ 1
Impuls xosil qiluvchi kuchlanish	U	X_1	kV	2	3	4
yig'uvchi kondensator sig'imi	C	X_2	mkF	0.1	0.55	1.0
Impulslar soni	n	X_3	dona	1	7	13

Elektr impulsli ishlov berish jarayonida biologik mahsulotni xujayralarini jonsizlanish jarayonini kechishi (javob yuzani o'zgarishi) nochiziqli xarakterga ega bo'lganligi uchun uning matematik modelini ikkinchi darajali polinom tenglama orqali ifodalaymiz /30/.

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^{3} b_i x_i + \sum_{i=1}^{3} b_{ii} x_{ii}^2 + \sum_{i<j}^{3} b_{ij} x_{ij} \qquad (2.14)$$

2.12-tenglamani (modelni) regressiya koeffitsiyentlarini topishda 3 ta markaziy nuqtani ichiga olgan 15 nuqtadan iborat k = 3(VV_3) o'lchamli Boks-Benkin D – optimal ikkinchi tartibli planidan foydalanamiz (qo'llaymiz).

Eksperiment natijalariga ishlov berish, modelni regression va dispersion analizlari algoritm blankasidan foydalanib bajaramiz /31/.

Xisob natijalari asosida jarayonni 2.15-tenglamaga adektiv quyidagi modelni qabul qilamiz

$$y = 62.3 + 8.5x_1 + 17.5x_2 + 34.0x_3 - 6.8x_1^2 - 9.3x_2^2 - \\ - 18.8x_3^2 - 0.25x_1x_2 + 5.25x_1x_3 + 10.75x_2x \qquad (2.15)$$

Qabul qilingan modeldan foydalanishni o'ng'aylashtirish uchun undagi faktorlarni kodlangan belgilanishini naturalga o'tkazamiz.

$$\delta = -92.8 + 43.5U + 63.2C + 8.2n - 6.8U^2 - 45.9C^2 - \\ - 0.52n^2 + 0.88Un + 3.98Cn \qquad (2.16)$$

Matematik modelni (2.15, 2.16 tenglamalar) taxlilini javob yuzani ikki o'lchamli kesimi usuli bo'yicha amalga oshiramiz. (2.2-rasm)



2.2-rasm. Uzum mevasi donasini jonsizlanish darajasini ifodalovchi javob yuzasi bo'yicha ikki o'lchamli kesimi (grafikda bir xil darajada jonsizlanish chizig'i ko'rsatilgan). a-x_3=0; b-x_3=0; v-x_3=0.

2.2-rasmda keltirilgan bog'liqliklar taxlili quyidagilarni ko'rsatadi. Kondensator sig'imi o'zgarmas bo'lganda (S=const) kuchlanishni optimaldan og'ishi xujayralarni o'lish darajasini kamayishiga olib keladi. Hujayralarni o'lish darajasiga kuchlanishni optimaldan pasayishining ta'siri optimaldan ortishidan ko'ra kattaroq. U=const bo'lganda kondensator sig'imini optimaldan og'ishi xam elektr ishlov berish samarasini (xujayralarni jonsizlanishini) pasayishiga olib keladi (2.2 a-rasm). Kondensator sig'imini optimaldan kamayishini elektr ishlov berish samarasini pasayishiga ta'siri uni optimaldan ortishiga nisbatan kattaroqligini ko'ramiz.

Kuchlanish va sig'imning optimal qiymatlari U=(3,5 – 4,0) kV va S=0,8-1 mkF ga to'g'ri keladi. Hujayralarni belgilangan jonsizlanish darajasiga U=(3,5 – 4,0) kV kuchlanishda impulslar sonini eng kam qiymatida erishiladi. Kuchlanishni ushbu qiymatidan pasayishi esa impulslar sonini keskin oshishini talab qiladi.

Kuchlanish o'zgarmas bo'lganda kondensator sig'imini kamayishi kerakli jonsizlantirishga erishishi uchun impulslar sonini unga mos ravishda oshirishni talab qiladi. Kerakli jonsizlantirish darajasiga erishish optimal kuchlanishni kondensator sig'imi va impulslar soni bilan bog'liqligini matematik ifodasini 2.16-tenglamani kuchlanish bo'yicha xususiy xosilasidan xosil qilinadi.

$$U_{opm} = 3{,}199 - 0{,}041C + 0{,}065n \qquad (2.17)$$

2.15 tenglama taxlili sig'imni 0,1 dan 1 mkF gacha o'zgarishi U_{opm} ni 0,004 dan 0,04 kV ga o'zgarishiga olib keladi va bu o'z navbatida

kondensator sig'imi U_{onm} ga ta'siri sezilarsizligini ko'rsatadi. U_{onm} ga impulslar soni ko'proq ta'sir ko'rsatishini kuzatish mumkin. Impulslar soni n 1 dan 13 gacha o'zgarganda U_{onm} ni 3,2 dan 4 kV gacha ortishiga olib keladi.

Kondensatorning optimal sig'imi kuchlanish va impulslar soni bilan bog'liqlik tenglamasini 2.16-tenglamani "S" bo'yicha xususiy xosilasi asosida quyidagicha ifodalaymiz

$$C_{onm} = 0{,}6885 - 0{,}0061U + 0{,}043U \qquad (2.18)$$

Kuchlanishni 2 dan 4 kV gacha o'zgarishi C_{onm} ni 0,012 dan 0,024 mkF gacha o'zgarishiga olib keladi va bu uning ta'siri katta emasligini ko'rsatadi. Jonsizlantirishni optimal darajasiga erishish uchun (C_{onm}) xar bir impulsdan keyingi impuls 0,043 mkF ga oshirilishi kerak. Boshqacha aytganda impulslar soni 1 dan 13 gacha o'zgarganda C_{onm} 0,74 dan 1,24 mkF gacha o'zgaradi.

Kondensatorda yig'ilgan energiya uni razryadlanish vaqtida uzum mevasi donasiga to'laligicha o'tadi deb xisoblab va $U_{onm} = f(C,n)$ va $C_{onm} = f(U,n)$ bog'liqlikdagi katta bo'lmagan ta'sirlarni tashlab yuborib bitta impuls optimal energiyasini impulslar soniga bog'liqligini quyidagicha ifodalaymiz:

$$E_{1onm} = 3{,}5255 + 0{,}3633n + 0{,}0104n^2 + 0{,}001n^3 \qquad (2.19)$$

Uzum donasini to'qimasi xujayralarini jonsizlanish darajasini optimal sharoitda 1 foizga (1%) oshirishga sarflanadigan energiyani impulslar soni bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$A = \frac{E_{1onm}}{\delta_n - \delta_{n-1}} = \frac{3.5255 + 0.3633n + 0.0104n^2 + 0.001n^3}{14.28 - 0.84n} \qquad (2.20)$$

2.20 formula va 2.3 rasm 3-grafikdan belgilangan jonsizlantirish uchun impulslar sonini oshib borishi solishtirma energiya sarfini ham ortib borishini ko'ramiz.

kuchlanish (U) va kondensator sig'im (S) larning optimal va o'zgarmas deb qabul qilib (U_{opt} = const, S_{opt} = const) 2.16 tenglama impulslar soni bo'yicha xususiy xosilasini olib uzum mevasi to'qimalari xujayralarini o'lish (jonsizlanish) darajasini (δ) impulslar soni "n" bog'liqlik ifodasini olamiz.

$$\delta = -2{,}71 + 13{,}65n - 0.407n^2 \qquad (2.21)$$

2.20 formula bo'yicha qurilgan 2.2 rasm 1 grafikda jonsizlantirilish δ ni 95% dan kam bo'lmasligi uchun "n" 10-11 tani tashkil etishi kerakligini

ko‘ramiz. 1kg uzumga ishlov berish uchun esa 60-65 J energiyaga ega razryaddan 1500-2000 ta impuls berilishi kerakdir. energiya sarfini ortishiga olib keladi (2.3-rasm 3-grafik).

Elektr ishlov berishni optimallashtirishga yo‘naltirilgan eksperimental tadqiqodlar va ularga stasistik ishlov berish, aniqlangan elektr ishlov berish optimal parametrlari 1 dona uzum mevasida ko‘rib chiqildi.



2.3-rasm. Razryad kuchlanishi va kondensator sig‘imi optimal bo‘lganda (U_{opt} va S_{opt}) uzum mevasi to‘qimalari jonsizlanishi δ (1-grafik), bitta impuls energiyasi E_i (2-grafik) va solishtirma energiyasi A (3-grafik) larni elektr razryadli impulslari soniga bog‘liqligi grafiklari.



2.4-rasm. Uzum mevasi to‘qimalari jonsizlanishi (δ) unga kiritilayotgan umumiy energiya miqdoriga bog‘liqligi.

Elktr ishlov berish parametrlarining quyidagi qiymatlarida:
1 - (U_{opt} va S_{opt}); 2- U=3,8kV va S=0.9mkF; 3-U=4kVva S=0.77mkF;
4- U=4kV va S=1.0mkF.

Ishlab chiqarish texnologiyasida uzum donolab emas bir bosh yoki uni bo'lib shingillarga ajratilgan holda ularga ishlov beriladi.

Uzum navi uning mevasi donalari ulcham va masasini inobatga olgan holda ishlov berilayotgan uzum boshi yoki shingilini balandligidan (qalinligidan) kelib chiqib quyidagi elektr impulsli ishlov berish parametrlarini optimalga yaqin deb qabul qilishimiz mumkin.

$$U_{опт} = 3.6 - 4.0кВ;\ C_{опт} = 0.8 - 1.0мкФ$$

Ushbu parametrlarda sig'imli impulsli manbada xosil bo'lgan bitta impuls energiyasi $W_i = 6.0 - 6.5Ж$ ga to'g'ri keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki

- Uzum mevasi to'qimalari xo'jayralarning elektr impulsli ishlov berish

jarayonida jonsizlantirish uzum naviga bog'liq emas va faqat empulsli razryad parametrlariga bog'liq..

- Uzum mevasi to'qimalar xo'jayralarini jonsizlantirishda minimal energiya sarfi va impulslar sonida yuqori samaraga erishish uchun navbatdagi beriladigan impulsli razryad energiyasini nochiziqli 4-9 J ga nochiziqli ortib borishi kerak.

2.3. Optimallashtirishga oid eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish, o'tkazish va ishlov berishni elektr impulsli ishlov berish bilan sharbat olish jarayonini matematik modellashtirishda o'rganish

O'simlik mahsulotlariga elektr ishlov berishni baholovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida sharbat olinishi va elektr impulsli ishlov berish parametrlari qabul qilingan. Ularning holatida turli hil elektr va texnologik faktorlar ta'sir ko'rsatadi. Faktorlarni baravar ta'sirini o'rganish uchun ularning sharbat olinishi va elektr impulsli ishlov berish parametrlari bilan funksional bog'lanishini aniqlash kerak.

Tajribalar sonini kamaytirish va aniqligini oshirish, jarayonning matematik tavsiflari tenglamalarini olish va tadqiqotning optimal sohasida rejim parametrlarini o'rnatish uchun biz tajribalarni rejalashtirish matematik nazariyasidan foydalangan holda ish olib bordik [43, 94, 133, 151].

Eksperimentlarni rejalashtirish matritsasini qurish uchun faktorlarni haqiqiy kattaliklaridan kodlangan (o'lchovsiz) qiymatiga o'tish quyidagi ifoda yordamida bajarildi:

$$x_i = \frac{X_i - X_{i0}}{\varepsilon} \qquad (2.24)$$

Bunda: x_i - i – faktorning kodlangan qiymati;

X_i - i – faktorning kontrol qiymati;

X_{io}- i – faktorning nol darajadagi kontrol qiymati;

ε - ushbu faktorning o'zgarish intervali.

Har bir faktor uchun avval nol darajasi va o'zgartirish oralig'ini belgilab kodlaymiz.

Biz quyidagi ko'rinishdagi matematik model turini tanlaymiz:

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^{n} b_i x_i + \sum_{i<j}^{n} b_{ij} x_i x_j + \sum_{n=1}^{n} b_{ij} x_i^2 \qquad (2.25)$$

B_n turidagi ikkinchi darajali eksperimentni rejalashtirish usulidan foydalanamiz.

Dastlabki eksperimentlardan sharbat chiqishiga (B) ta'sir qiluvchi asosiy parametrlar quyidagilar olindi:

X_1 – razryad kuchlanishi, kV;

X_2 –impulslar soni, dona;

X_3 – kondensator sig'imi, mkF;

X_4 – presslash bosimi, kg/sm^2.

Tajribalar davomida B_4 rejasi spektrining har bir nuqtasida uchta tajriba o'tkazildi. Tajribalarning tartibi sonlar jadvaliga muvofiq amalga oishirildi.

Belgilangan faktorlar, ularni o'zgartirish intervallari va darajalari 2.25-jadvalda keltirilgan.

2.25-jadval

Faktorlarni o'zgartirish intervallari va darajalari

Faktorlarni belgilanishi		Faktor	Interval	Darajalar			Ta'sir qilish ob'ekti
Kodlangan	Natural			-1	0	+1	
X_1	U	Razryad hosil qiladigan kuchlanish, kV	2 2	5 3	7 5	9 7	Olma "Toyfi" navli uzum
X_2	n	Impulslar soni, dona	6 6	8 6	14 12	20 18	Olma "Toyfi" navli

							uzum
X_3	C	Kondensator sig'imi, mkF	0,2 0,2	0,2 0,1	0,4 0,3	0,6 0,5	Olma "Toyfi" navli uzum
X_3	P	Presslash bosimi	4 2	4 4	8 6	12 8	Olma "Toyfi" navli uzum

Ushbu reja uchun asosiy funksiyalarning matritsasi 2.26-jadvalda keltirilgan. 2.26-jadvaldagi m ta parallel tajribalar o'rtacha qiymati va dispersiyalar quyidagi formulalar yordamida hisoblangan:

$$\bar{y}_g = \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m} y_{gi} \qquad (2.26)$$

$$S_g^2 = \frac{1}{m-1}\sum_{i=1}^{m}\left(y_{gi} - \bar{y}_g\right)^2 \qquad (2.27)$$

Eksperiment ifodalanishini Koxren kriteriyasi bo'yicha tekshiramiz. $q = 0{,}05$ uchun

$$G = 0.8563 < G_{1-q}\left(\nu_1 = 2,\ \nu_2 = 24\right) = 0.2354,$$

Ushbu qiymat tajribaning ifodalanishi gipotezasi kuzatuv natijalariga zid kelmaydi.

Dispersiyani ifodalanishini (vosproizvodimost) darajasini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz:

$$S^2\{y\} = \frac{1}{N}\sum_{g=1}^{N} S_g^2 = \frac{1}{N_1 + 2n + N_0}\sum_{g=1}^{N} S_g^2 = \frac{145{,}756}{24} = 6{,}073 \qquad (2.28)$$

2.26-jadval

(B_p) B_4 turidagi plan matritsasi va eksperiment natijalari

g	Bazis funksiyalarning F matritsasi																y_{g1}	y_{g2}	y_{g3}	$\bar{y}_g$	S_g^2	$\hat{y}_g$
	$f_0(x)$	$f_1(x)$	$f_2(x)$	$f_3(x)$	$f_4(x)$	$f_5(x)$	$f_6(x)$	$f_7(x)$	$f_8(x)$	$f_9(x)$	$f_{10}(x)$	$f_{11}(x)$	$f_{12}(x)$	$f_{13}(x)$	$f_{14}(x)$							
	1	x_1	x_2	x_3	x_4	x_1x_2	x_1x_3	x_1x_4	x_2x_3	x_2x_4	x_3x_4	x_1^2	x_2^2	x_3^2	x_4^2							
1	1	-1	-1	-1	-1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1		61,12	63,96	61,7	62,26	2,2516	65,8
2	1	+1	-1	-1	-1	-1	-1	-1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1		63,46	67,63	65,83	65,64	4,3743	66,6
3	1	-1	+1	-1	-1	-1	+1	+1	-1	-1	+1	-1	+1	+1	+1		64,1	67,95	68,68	66,91	6,0353	67,5
4	1	+1	+1	-1	-1	+1	-1	-1	-1	-1	+1	+1	+1	+1	+1		63,52	70,07	64,50	66,03	12,4813	66,3
5	1	-1	-1	+1	-1	+1	-1	+1	-1	+1	-1	+1	+1	+1	+1		67,54	65,55	60,80	64,63	11,9917	67,6
6	1	+1	-1	+1	-1	-1	+1	-1	-1	+1	-1	+1	+1	+1	+1		65,81	66,31	70,20	67,44	5,7757	68,4
7	1	-1	+1	+1	-1	-1	-1	+1	+1	-1	-1	+1	+1	+1	+1		63,93	67,43	68,02	66,46	4,8877	69,3
8	1	+1	+1	+1	-1	+1	1	-1	1	-1	-1	+1	+1	+1	+1		67,55	71,75	72,14	70,48	6,4767	70,1
9	1	-1	-1	-1	+1	+1	1	-1	1	-1	-1	+1	+1	+1	+1		66,52	69,71	70,23	68,82	4,0351	68,5
10	1	+1	-1	-1	+1	-1	-1	1	1	-1	-1	+1	+1	+1	+1		71,77	70,68	67,4	69,95	5,1739	72,3
11	1	-1	+1	-1	+1	-1	1	-1	-1	1	-1	+1	+1	+1	+1		67,6	68,40	71,69	69,23	4,6987	70,2
12	1	+1	+1	-1	+1	1	-1	1	-1	1	-1	+1	+1	+1	+1		70,89	71,46	75,54	72,63	6,4323	74,0
13	1	-1	-1	+1	+1	1	-1	-1	-1	-1	+1	+1	+1	+1	+1		67,55	69,25	73,05	69,95	7,93	70,3
14	1	+1	-1	+1	+1	-1	+1	+1	-1	-1	+1	+1	+1	+1	+1		70,76	72,56	74,72	72,68	3,9312	74,1
15	1	-1	+1	+1	+1	-1	-1	-1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1		73,6	69,96	68,84	70,8	6,1936	72,0
16	1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1	+1		75,22	69,59	74,25	73,02	9,0589	75,8
17	1	-1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1	0	0	0		66,12	69,91	65,87	67,3	5,1247	66,8
18	1	+1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1	0	0	0		71,24	67,85	68,00	69,03	3,0687	69,1
19	1	0	-1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1	0	0		70,43	74,01	69,67	71,37	5,3716	72,3
20	1	0	+1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1	0	0		71,29	71,35	75,52	72,72	5,8809	74,0
21	1	0	0	-1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1	0		71,05	70,15	75,28	72,16	7,5033	72,0
22	1	0	0	+1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1	0		76,11	74,43	72,03	74,19	4,2048	74,0
23	1	0	0	0	-1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	+1		73,39	74,00	77,01	74,8	3,7561	73,2
24	1	0	0	0	+1	0	0	0	0	0	0	0	0	0	1		72,29	74,90	78,11	75,1	8,4981	77,3

O'rtacha dispersiyani quyidagicha hisoblaymiz:

$$S^2\{\overline{y}\} = \frac{S^2\{y\}}{m} = \frac{6.073}{3} = 2.024 \qquad (2.29)$$

Regressiya koeffitsiyentlarini aniqlash uchun quyidagi summani hisoblaymiz (2.27-jadval):

$$z_j = \sum_{g=1}^{N} f_{gj}\overline{y}_g, \quad j = 0...14. \qquad (2.30)$$

Bu yerda: $j=0$ uchun $f_{g0}=1$; $j=1...4$ uchun $f_{gi}=(x_i)_g$; $j=5...10$ uchun $f_{gi}=(x_i x_j)_g$ $(ij=1...4,\ i=f)$; $j=11...14$ uchun $f_{gi}=(x_i^2)_g$ $(i=1...4)$.

Hisoblarni 2.27-jadvalda keltiramiz.

2.27-jadval

t_j-kriteriya va b_j koeffitsiyentlarni hisoblash natijalari

Bazis funksiya	j	z_j	b_j	$S^2(b_j)$	$S(b_j)$	t_j
1	0	1673,60	73,20	0,46392	0,68112	107,47
x_1	1	20,54	1,14	0,11247	0,33537	3,40
x_2	2	15,54	0,86	0,11247	0,33537	2,57
x_3	3	16,02	0,89	0,11247	0,33537	2,65
x_4	4	37,53	2,09	0,11247	0,33537	6,22
x_1x_2	5	-1,29	-0,08	0,12652	0,35569	-0,23
x_1x_3	6	4,75	0,30	0,12652	0,35569	0,83
x_1x_4	7	12,15	0,76	0,12652	0,35569	2,13
x_2x_3	8	-2,07	-0,13	0,12652	0,35569	-0,36
x_2x_4	9	-5,63	-0,35	0,12652	0,35569	-0,99
x_3x_4	10	-2,35	-0,15	0,12652	0,35569	-0,41
x_1^2	11	1233,26	-5,20	0,80129	0,89515	-5,81
x_2^2	12	1241,02	-1,32	0,80129	0,89515	-1,47
x_3^2	13	1243,28	-0,19	0,80129	0,89515	-0,21
x_4^2	14	1247,83	2,09	0,80129	0,89515	2,33

Hisoblangan summa $Z_j(j=0...14)$ qiymatlari yordamida regressiya koeffitsiyentlarini quyidagi formulalar orqali hisoblaymiz:

$$b_0 = \frac{a}{N}\sum_{i=1}^{N}\overline{y}_g - \frac{b}{N}\sum_{i=1}^{n}\cdot\sum_{g=1}^{N}(x_i^2)_g\overline{y}_g; \qquad (2.31)$$

$$b_i = \frac{1}{\lambda_2 \cdot N}\cdot\sum_{g=1}^{N}(x_i\ )_g\,\overline{y}_g; \qquad (2.32)$$

$$b_{ij} = \frac{1}{\lambda_3 \cdot N} \cdot \sum_{g=1}^{N} (x_i x_j \ ) \overline{y}_g \ ; \qquad (2.33)$$

$$b_{ij} = \frac{C}{N} \cdot \sum_{i=1}^{N} (x_i^2 \ ) \overline{y}_g - \frac{d}{N} \cdot \sum_{i=1}^{n} \cdot \sum_{g=1}^{N} \ (x_i^2 \ ) \overline{y}_g - \frac{b}{N} \cdot \sum_{g=1}^{N} \overline{y}_g \ ; \qquad (2.34)$$

Bu yerda: a,b,c,d $(\lambda_2 \cdot N)^{-1}, (\lambda_3 \cdot N \ )^{-1}$ konstantalar, model koeffitsiyentlarini hisoblash uchun yordamchi konstruksiyalar.

n=4 da va koeffitsiyentlar soni b_{ij} to'rtga teng bo'lganda konstantalar qiymati quyidagicha bo'ladi:

a = 5,5; b= 1,5; c= 12; d= 2,5; $(\lambda_2 \cdot N)^{-1} = 0{,}05556$; $(\lambda_3 N)^{-1} = 0{,}0625$.

Koeffitsiyentlar dispersiyalari quyidagi ifodalar orqali hisoblanadi:

$$S^2(b_0) = \frac{a}{N} S^2\{\overline{y}\}; \qquad (2.35)$$

$$S^2\{b_i\} = (\lambda_2 \cdot N)^{-1} S^2\{\overline{y}\}; \qquad (2.36)$$

$$S^2\{b_{ij}\} = (\lambda_3 \cdot N)^{-1} S^2\{\overline{y}\}; \qquad (2.37$$

$$S^2\{b_{ii}\} = \frac{C - OC}{N} S^2\{\overline{y}\}; \qquad (2.38)$$

t_j-kriteriya qiymatlarini quyidagi ifoda orqali hisoblaymiz:

$$t_i = \frac{|b_j|}{S\{b_j\}} \qquad (2.39)$$

Bu yerda: $s\{b_j\} = \sqrt{s^2\{b_j\}}$ tanlama o'rtacha kvadratik og'ish.

Regressiya koeffitsiyentlarini baholashning ahamiyatligini tekshirish nolinchi gipotezani Styudent t-kriteriyasining alternativ qiymati bilan taqqoslashni quyidagi tengsizlik orqali amalga oshiramiz:

$$t_j > t_{1-\frac{g}{2}}(v = N(m-1)) \qquad (2.40)$$

bu yerda: $t_{1-\frac{g}{2}}(v)$ - V = N (m-1) erkinlik darajasi soni uchun Styudentning $(1-\frac{g}{2})$% kvantil taqsimoti, nolinchi gipoteza $H_0 \cdot \beta = 0$ rad etildi va b_i ning tegishli bahosi statistik ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Ushbu holatda $q = 0{,}05$ uchun Styudent taqsimoti kvantili $t_{1-\frac{g}{2}}(48) = 2{,}011$ ga teng bo'ladi.

b_5, b_6, b_8, b_9, b_{10}, b_{12}, b_{13} koeffitsiyentlar uchun (3.19) tenglik bajarilmayabdi, demak ushbu koeffitsiyentlar ahamiyatga ega emas.

Shunday qilib matematik modelni quyidagi ko'rinishda olamiz:

Olma uchun:

$$y(x,b) = 73{,}20 + 1.14x_1 + 0{,}86x_2 + 0{,}89x_3 + 2.09x_4 + 0{,}76x_1x_4 - 5.20x_1^2 + 2{,}09x_4^2 .$$

Uzum uchun:

$$\hat{y}(x,b) = 75{,}68 + 1{,}28x_1 + 0{,}79x_2 + 0{,}68x_3 + 2{,}24x_4 + 0{,}75x_1x_4 + \\ + 0{,}85x_3x_4 - 6{,}03x_1^2 - 2{,}28x_2^2 + 2{,}48x_4^2$$

Eksperiment natijalariga ishlov berishning navbatdagi bosqichi matematik model va javob funksiyasining adekvatligi haqidagi gipotezani tekshirib ko'rishdir. Regression tahlil usulidan so'ng ushbu tanlama dispersiya va adekvatlik dispersiyasini taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan ikkala dispersiyaning bir xilligi haqidagi gipotezaning adekvatligi to'g'risidagi gipotezani tekshirish Fisher kriteriyasi yordamida amalga oshiriladi:

$$F = \frac{S^2_{OTK}}{S^2\{\bar{y}\}} \qquad (2.41)$$

Tanlangan dispersiya S^2_{OTK} quyidagi formula yordamida topiladi:

$$S^2_{OTK} = \frac{\sum_{g=1}^{N}(\bar{y}_g - \hat{y}_g)^2}{N-d} \qquad (2.42)$$

Jadvaldagi qiymatga asosan [4] hisoblaymiz:

$$S^2_{OTK} = \frac{69{,}6308}{17} = 2{,}02329$$

$S^2_{OTK} < S^2_{\{\bar{y}\}}$ ni hisobga olib, quyidagicha hisoblaymiz:

$$F = \frac{S^2\{\bar{y}\}}{S^2_{OTK}} = \frac{2{,}024}{2{,}02329} = 1{,}00035$$

V_1=N-d=24-7=7; V_2=N(n-1)=24(3-1)=48

q=0,05 da Fisher kriteriyasining jadval [57] qiymati quyidagiga teng bo'ladi:

$F = 1{,}00035 < F_{1-q}(17,48) = 1{,}8425$

Demak, matematik model va javob funksiyasining mosligi haqidagi gipoteza kuzatuv natijalariga zid kelmaydi.

Ahamiyatga ega emas koeffitsiyentlarni chiqarib tashlab va olingan ma'lumotlarni hisoblash natijalariga ko'ra matematik model kodlangan ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

$$\hat{y}(x,b) = 73.20 + 1.14x_1 + 0.86x_2 + 0{,}89x_3 + 2.09x_4 + \\ + 0.76x_1x_4 - 5{,}20x_1^2 + 2{,}09x_4^2 \qquad (2.43)$$

$$\hat{y}(x,b) = 75{,}68 + 1{,}28x_1 + 0.79x_2 + 0{,}68x_3 + 2{,}24x_4 + \\ + 0.75x_1x_4 + 0{,}85x_3x_4 - 6{,}03x_1^2 - 2.28x_2^2 + 2{,}48x_4^2 \qquad (2.44)$$

O'zgaruvchilarni kodlangan ko'rinishdan natural qiymatlariga o'tish quyidagi ifoda orqali bajariladi:

$$x_i = \frac{X_i - X_{i0}}{\varepsilon} \qquad (2.45)$$

(2.44) ifodaga asosan sharbat olish jarayoni tenglamasidagi o'zgaruvchilar qiymati quyidagicha bo'ladi:

$$x_1 = \frac{U-7}{2}; \qquad x_2 = \frac{n-14}{6}; \qquad x_3 = \frac{C-0{,}4}{0{,}2};$$

$$x_4 = \frac{P-8}{4};$$

Kodlangan qiymatlarni natural qiymatlarga o'tkazib va tegishli o'zgarishlardan keyin meva va uzumga elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayoni matematik modeli quyidagi ko'rinishga keladi:

Olma uchun:

$$y = -1{,}3U^2 + 0{,}13P^2 + 18{,}24U + 0{,}143n + 4{,}45C - 2{,}2325P + 0{,}095UP + 11{,}22 \qquad (2.46)$$

Uzum uchun:

$$y = -1{,}5075U^2 - 0{,}0583n^2 + 0{,}62P^2 + 29{,}575U + 1{,}6364n - 9{,}35C - 6{,}9575P + \\ + 0{,}1875UP + 2{,}125CP - 62{,}515 \qquad (2.47)$$

Matematik mobelning optimum qiymatini topish uchun PascalABC kompyuter dasturida hisoblaymiz. 2.16-rasmda mevalardan sharbat chiqishini hisoblash algoritmining blok-sxemasi keltirilgan.

Tadqiqotlar natijasida elektr impulsli ishlov berib sharbat olish jarayonining quyidagi optimal parametrlari aniqlandi: olma uchun razryad kuchlanishi 7,5 kV, impulslar soni 18 ta, kondensator sig'imi 0,6 mkF, presslash bosimi 10 kg/sm^2; uzum uchun razryad kuchlanishi 6 kV, impulslar soni 14 ta, kondensator sig'imi 0,4 mkF, presslash bosimi 8 kg/sm^2.



2.16-rasm. Mevalardan sharbat chiqishini hisoblash algoritmining blok-sxemasi

3. ILMIY TATQIQOTLARDA MATEMATIK STATISTIKANING USULLARNI QO'LLASH BO'YICHA MISOLLAR

3.1. Tajriba natijalariga statistik ishlov berishga oid masalalar

Tajriba rejasi jadvali (matritsasi) va regressiya tenglamasini tuzish. Uch faktorli ikki pog'onali tajriba matritsasi va regressiya tenglamasini tuzish.

Tajriba rejasi jadvalini (matritsasi) tuzish uchun tajribalar sonini (N) aniqlaymiz. Tajribalar soni (N) o'rganilayotgan jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar soni (m) va pog'onalar soni (n) orqali quyidagi formula bilan topiladi:

$$N = n^m \tag{3.1}$$

Tajriba matritsasini 3.5 – jadvalga kiritamiz.

Regressiya tenglamasini quyidagi ko'rinishda qabul qilamiz:

$$y = a_0 + a_1x_1 + a_2x_2 + a_3x_3 + a_{12}x_1x_2 + a_{23}x_2x_3 + a_{13}x_1x_3 + a_{123}x_1x_2x_3$$

Tajriba matritsasi

3.1-jadval

T. r.	X_0	X_1	X_2	X_3	X_1X_2	X_1X_3	X_2X_3	$X_1X_2X_3$	Qayta o'lchash U_1	U_2	U_3	$U_{o'rt}$
1	+	-	-	-	+	+	+	-	U_{11}	U_{12}	U_{13}	$U_{o'rt}$
2	+	+	-	-	-	-	+	+	U_{21}	U_{22}	U_{23}	$U_{o'rt}$
3	+	-	+	-	-	+	-	+	U_{31}	U_{32}	U_{33}	$U_{o'rt}$
4	+	+	+	-	+	-	-	-	U_{41}	U_{42}	U_{43}	$U_{o'rt}$
5	+	-	-	+	+	+	-	+	U_{51}	U_{52}	U_{53}	$U_{o'rt}$
6	+	+	-	+	-	-	-	-	U_{61}	U_{62}	U_{63}	$U_{o'rt}$
7	+	-	+	+	-	+	+	-	U_{71}	U_{72}	U_{73}	$U_{o'rt}$
8	+	+	+	+	+	-	+	+	U_{81}	U_{82}	U_{83}	$U_{o'rt}$

1-misol. 3.1 - jadvalda tarmoqdagi yuklama miqdori haqida ma'lumotlar berilgan. Natijalar 10 kun davomida soat 16.00 da olingan. O'rtacha arifmetik qiymat va o'rtacha kvadrat og'ishni aniqlang.

3.2 - jadval

T.r.	Kuzatuv natijalari x_i	$x_i - \bar{x}$	$(x_i - \bar{x})^2$	T.r.	Kuzatuv natijalari x_i	$x_i - \bar{x}$	$(x_i - \bar{x})^2$
1	12	0,9	0,81	6	14	2,9	8,41
2	13	1,9	3,67	7	13	1,9	3,67
3	8	-3,1	9,61	8	11	-0,1	0,01
4	6	-5,1	26,01	9	13	1,9	3,87
5	13	1,9	3,01	10	8	-3,1	9,61
				Σ	115	17,7	69,07

Echish: 1. O'rtacha arifmetik qiymatni aniqlaymiz:

$$m \approx \bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^{n} X_i}{n} = \frac{1}{10}(12+13+8+6+13+14+13+11+13+8) = \frac{115}{10} = 11,5$$

2. Dispersiyasini aniqlaymiz: $\delta_x^2 = (\delta_x^*)^2 = \frac{1}{n-1}\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})^2 = \frac{69,07}{9} = 7,67$

3. O'rtacha kvadratik og'ishi: $\delta_x = \delta_x^* = \sqrt{\delta_x^*} = \sqrt{7,67} = 2,77$

4. Saralab olingan o'rtacha uchun o'rtacha kvadratik og'ishini topamiz:

$$\delta_{\bar{x}}^* = \frac{\delta_x^*}{\sqrt{n}} = \frac{2,77}{10} = 0,277$$

2 - misol. 3.2-jadvalda keltirilgan 25 kun davomida soat 16 da tarmoqdagi quvvatni o'lchash natijalari bo'yicha o'rtacha qiymat ($\bar{x}$), dispersiya (σ_X^2) bosh tanlamani o'rtacha kvadratik og'ishi ($\sigma_{\bar{X}}^2$) uchun tanlama baholari aniqlansin.

3.3-jadval.

№ t/r	Kuzatuv natijalari x_i	$(x_i - \bar{x})$	$(x_i - \bar{x})^2$	№ t/r	Kuzatuv natijalari x_i	$(x_i - \bar{x})$	$(x_i - \bar{x})^2$
1	12	2	4	14	10	0	0
2	13	3	9	15	14	4	16
3	8	-2	4	16	9	-1	1
4	6	-4	16	17	8	-2	4
5	13	3	9	28	6	-4	16
6	14	4	16	19	11	1	1
7	13	3	9	20	12	2	4
8	11	1	1	21	9	-1	1
9	13	3	9	22	10	0	0
10	8	-2	4	23	8	-2	4
11	7	-3	9	24	8	-2	4
12	11	1	1	25	7	-3	9
13	9	-1	1	Σ	250		152

Echish: 1) O'rtacha qiymat ($\bar{x}$) ni o'rtacha arifmetik qiymat (m) ga teng deb qabul qilib quyidagicha topamiz. $m \approx \bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^{n} x_i}{n} = \frac{250}{25} = 10$

2) Bosh majmua dispersiyasini (σ_X^*) quyidagicha topamiz.

$$\sigma_X^2 \approx D = (\sigma_X^*)^2 = \frac{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})^2}{n-1} = \frac{152}{24} = 6{,}33$$

Ba'zi arifmetik xisoblar natijalari ($x_i - \bar{x}$), ($x_i - \bar{x}$)^2 11.2-jadvalda keltirilgan.

3) Bosh tanlama o'rtacha kvadratik og'ishini quyidagicha topamiz:

$$\sigma_X \approx \sigma_X^* = \sqrt{6{,}33} = 2{,}52$$

4) Tanlama uchun o'rtacha kvadratik og'ishni quyidagicha topamiz:

$$\sigma_{\bar{x}}^* = \frac{\sigma_X^*}{\sqrt{n}} = \frac{2{,}52}{\sqrt{25}} = 0{,}5$$

3 - misol. 3.4-jadvalda elektr motorlarni quvvatiga qarab (guruxlarga bo'lingan) ta'mirlash baxolari keltirilgan. Jadvalda keltirilgan kattaliklar asosida chiziqli regressi tenglamasini ($Y = kx + b$) korrelyatsiya koeffitsiyentini ($r_{tanl.}^*$) toping va chastotalar gistogrammasini quring, (y_i, n_i) xamda tanlama o'rtacha baxo ($\bar{y}$) va tanlama o'rtacha kvadratik og'ish (σ_Y^*) larni toping.

Echish. 1) 11.3-jadvalda keltirilgan ma'lum quvvatli (x_j) motorni ta'mirlanish soni (n_y) korrelyatsiya qatori jadval dioganali bo'yicha joylashganligi, tadqiq etilayotgan ko'rsatkichlar X va Y musbat korrelyatsiya koeffitsiyentli chiziqli regressiya qatoriga mosligini ko'rsatadi, ya'ni $Y = kx + b$ tenglama bilan ifodalash mumkin.

3.4-jadval

"y" bo'yicha baxolar intervali, so'mda	O'rtacha baxolar intervali, y	Elektr motor quvvati x_i, kVt							Ta'mirlanishlar soni n_i	Tami'mirlash narxi chastotalar zichligi ω_i
		Ta'mirlanishlar soni n_y								
0-10	5	3	4	2	1				10	0,020
10-20	15	2	2	5	3	1			13	0,026
20-30	25		2	2	5	1	2	1	13	0,026
30-40	35			1	1	3	4	2	11	0,022
40-50	45					1	1	1	3	0,006
Ta'mirlashlar soni n_i		5	8	10	10	6	7	4	50	

2) O'rtacha tanlama qiymatlarni ($\bar{x}$ va $\bar{y}$) xisoblaymiz.

O'rtacha tanlama qiymat ($\bar{x}$, $\bar{y}$) tanlama to'plam belgisining arifmetik o'rtacha qiymatiga aytiladi. Agar n xajmli tanlama belgisining barcha $x_1, x_2, x_3, ...x_n$ qiymatlari turlicha bo'lsa $\bar{x}$ quyidagicha topiladi.

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + x_3 .... x_n}{n} \tag{3.2}$$

Agar n xajmli belgining $x_1, x_2, x_3, ...x_n$ qiymatlari mos ravishda $n_1, n_2, n_3, ...n_k$ chastotalarga ega bo'lsa $\bar{x}$ quyidagicha xisoblanadi:

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^{n} n_i x_i}{n} \tag{3.3}$$

Bizning misol uchun ushbu formuladan foydalanamiz.

$$\bar{x} = \frac{\sum_{i=1}^{7} n_i x_i}{n} = \frac{5 \cdot 0,6 + 8 \cdot 1,1 + 10 \cdot 2,2 + 10 \cdot 4,0 + 6 \cdot 7,5 + 7 \cdot 13 + 4 \cdot 22}{50} = 5,96$$

$$\bar{y} = \frac{\sum_{i=1}^{5} n_i y_i}{n} = \frac{10 \cdot 5 + 13 \cdot 15 + 13 \cdot 25 + 11 \cdot 35 + 3 \cdot 45}{50} = 21,8$$

Yig'indilarni topamiz:

$$\sum_{i=1}^{7} n_i \left(x_i - \bar{x}\right)^2, \ \sum_{i=1}^{5} n_i \left(y_i - \bar{y}\right)^2, \ \sum_{i=1}^{7} \sum_{i=1}^{5} n_{ij} \left(x_i - \bar{x}\right)\left(y_i - \bar{y}\right): \tag{3.4}$$

$$\sum_{i=1}^{7} n_i \left(x_i - \bar{x}\right)^2 = \sum_{i=1}^{7} n_i x_i^2 - 50\bar{x}^2 = 5 \cdot 0,6^2 + 8 \cdot 1,1^2 + 10 \cdot 2,2^2 + 10 \cdot 4^2 + 6 \cdot 7,5^2 +$$

$$+ 7 \cdot 13^2 + 4 \cdot 22^2 - 50 \cdot 5,96^2 = 1900;$$

$$\sum_{i=1}^{5} n_i \left(y_i - \bar{y}\right)^2 = \sum_{i=1}^{5} n_i y_i^2 - 50\bar{y}^2 = 10 \cdot 5^2 + 13 \cdot 15^2 + 13 \cdot 25^2 + 11 \cdot 35^2 + 3 \cdot 45^2 - 50 \cdot 21,8^2 = 7090$$

$$\sum_{i=1}^{7}\sum_{i=1}^{5} n_{ij}\left(x_i-\bar{x}\right)\left(y_i-\bar{y}\right)=\sum_{i=1}^{7}\sum_{i=1}^{5} n_{ij}x_iy_i-50\bar{x}\bar{y}=3\cdot0{,}6\cdot5+4\cdot1{,}1\cdot5+2\cdot2{,}2\cdot5+1\cdot4\cdot5+$$

$$+2\cdot0{,}6\cdot15+2\cdot1{,}1\cdot15+5\cdot2{,}2\cdot15+\ldots+1\cdot22\cdot45-50\cdot5{,}96\cdot21{,}8=2415.$$

Tanlama to'plam korrelyatsiya koeffitsiyentini (r^*_{man}) topamiz:

$$r^*_{man}=\frac{\sum_{i=1}^{7}\sum_{i=1}^{5} n_{ij}\left(x_i-\bar{x}\right)\left(y_i-\bar{y}\right)}{\sqrt{\sum_{i=1}^{7} n_i\left(x_i-\bar{x}\right)^2\sum_{i=1}^{5} n_i\left(y_i-\bar{y}\right)^2}}=\frac{2415}{\sqrt{1900\cdot7090}}\approx0{,}66.$$

Tanlama regressiya koeffitsiyentni (k_{YX}) quyidagicha topiladi.

$$k_{YX}=\frac{\sum_{i=1}^{7}\sum_{i=1}^{5} n_{ij}\left(x_i-\bar{x}\right)\left(y_i-\bar{y}\right)}{\sum_{i=1}^{7} n_i\left(x_i-\bar{x}\right)^2}=\frac{2415}{1900}=1{,}27;$$

Regressiya tenglamasi o'ng tomonidagi o'zgarmas tashkil etuvchisi "b" ni topamiz: $b=\bar{y}-k_{YX}\bar{x}=21{,}8-1{,}27\cdot5{,}96=14{,}23$.

Regresiya tenglamaga xisoblangan k_{YX} va b keffitsiyentlarni qo'yib uni quyidagicha ifodalaymiz: $Y=1{,}27\bar{x}-14{,}23$.

x_i quvvatli xar bir elektr motorni ta'mirlash o'rtacha baxosini $\bar{y}_{xi}$ quyidagicha formulada xisoblaymiz:

$$\bar{y}_{xi}=\frac{\sum x_iy_i}{n_i};\qquad(3.5)$$

$$\bar{y}_{0,6}=\frac{3\cdot5+2\cdot15}{5}=9;\qquad \bar{y}_{1,1}=\frac{4\cdot5+2\cdot15+2\cdot25}{8}=12{,}5;$$

$$\bar{y}_{2,2}=\frac{2\cdot5+5\cdot15+2\cdot25+1\cdot35}{10}=17;\qquad \bar{y}_{4}=\frac{1\cdot5+3\cdot15+5\cdot25+1\cdot35}{10}=20{,}5;$$

$$\bar{y}_{7,5}=\frac{1\cdot15+1\cdot25+3\cdot35+1\cdot45}{6}=31{,}7;\qquad \bar{y}_{13}=\frac{2\cdot25+4\cdot35+1\cdot45}{7}=33{,}6;$$

$$\bar{y}_{22}=\frac{1\cdot25+2\cdot35+1\cdot45}{4}=35.$$

3.4-jadvalda keltirilgan elektr motor quvvatlari (x_i) uchun xisoblangan ta'mirlash o'rtacha baxolari ($\bar{y}_{xi}$) funksional bog'liqligi grafigini olish uchun ($x_i,\bar{y}_{xi}$) nuqtalarni koordinatalari bo'yicha grafigini chizamiz 3.2-rasm. Chastotalar gistogrammasini qurish uchun (y_i, n_i) ta'mirlash baxosi chastotasi zichligini (ω_j) topamiz:

$$\omega_j=\frac{P^*_i}{h}=\frac{n_j}{\sum n_i h}\qquad(3.6)$$

Barcha narxlar intervali $h=10$ so'm ga tengligini xisobga olib ω_j ni xisoblaymiz:

Birinchi interval uchun: $\omega_1 = \frac{10}{50 \cdot 10} = 0{,}02$;

Ikkinchi interval uchun: $\omega_2 = \frac{13}{50 \cdot 10} = 0.026$;

Uchinchi interval uchun: $\omega_3 = \frac{13}{50 \cdot 10} = 0{,}026$;

To'rtinchi interval uchun: $\omega_4 = \frac{11}{50 \cdot 10} = 0{,}022$;

Beshinchi interval uchun: $\omega_5 = \frac{3}{50 \cdot 10} = 0{,}006$.

Ta'mirlash narxlari intervallari va xisoblangan ω_i bo'yicha chastotalar gistogrammasini quramiz (3.1-rasm).



3.1-rasm. Chiziqli regressiya grafigi (x_i va $\bar{y}_{x_i}$ ni funksional bog'liqligi grafigi)



3.2-rasm. Chastotalar gistogrammasi

Bosh tanlamaning o'rtacha kvadratik og'ishi (σ_y') ni quyidagi formula bilan xisoblaymiz: $\sigma_y' = \sqrt{\frac{\sum_{j=1}^{5} n_j \left(y_j - \bar{y}\right)^2}{50-1}} = \sqrt{\frac{7090}{49}} \approx 12$.

4 - misol. 10/0,38 kV kuchlanishli podstansiyadan energiya bilan ta'minlanayottgan parrandachilik korxonada maksimal quvvatdan foydalanish soatlari sonini xar xil qiymatlarida yillik energiya iste'moli ko'rsatkichi A_i maksimal quvvati (S_i) 3.5-jadvalni ikkinchi va uchinchi ustunlarida keltirilgan podstansiyani xisobiy yuklamasi va parrandachilik korxonasida elektr energiya iste'moli ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlansin. .

3.5 -jadval

№ t/r	S_i, kV A	A_i kV·A ·s·10^3	$S_i-\bar{S}$ kV·A	$(S_i-\bar{S})^2\cdot10^{-2}$ (kVA)^2	$A_i-\bar{A}$ kV·A ·s·10^3	$(A_i-\bar{A})^2\cdot10^{-2}$ (kV·A·s)^2·1 0^6	$\left(S_i-\bar{S}\right)\left(A_i-\bar{A}\right)\cdot10^{-2}$ (kVA)^2·s·10^3
1	2	3	4	5	6	7	8
1	40	40	-180	324	-680	4624	1224
2	70	280	-150	225	-440	1936	660
3	100	250	-120	144	-470	2209	564
4	120	150	-100	100	-570	3249	570
5	150	450	-70	49	-270	729	189
6	220	600	0	0	-120	144	0
7	230	1070	10	1	350	1225	35
8	260	1000	40	16	280	784	112
9	320	800	100	100	80	64	80
10	340	700	120	144	-20	4	-24
11	370	1500	150	225	780	6084	1170
12	420	1800	200	400	1080	11664	2160
	2640	8640		1728		32716	6740
O'r tacha qiymat	220	720					

Echish: 1) Ikkita tasodifiy kattaliklar (korxonaning yillik energiya iste'moli (A_i) va maksimal quvvat S_i) orasidagi bog'liqliklar korrelyatsiya koeffitsiyenti bilan ifodalanadi.

2) Korrelyatsion koeffitsiyentni topish uchun yil mobaynida iste'mol qilingan energiya miqdori (A_i) va maksimal quvvatlar (S_i) qayd etilgan ikkinchi va uchinchi ustunda keltirilgan variatsion qatordan foydalanib jadvalni 4-8 ustunlarini to'lg'azamiz. Buning uchun energiya iste'moli va maksimal quvvat kattaliklari keltirilgan variatsion qatorni o'rtacha qiymati $\bar{A}$ va $\bar{S}$ larni xisoblaymiz.

$$\bar{S}=\frac{\sum_{i=1}^{12}S_i}{n}=\frac{40+70+100+120+150+220+230+260+320+340+370+420}{12}=\frac{2640}{12}=220\kappa BA$$

$$\bar{A}=\frac{\sum_{i=1}^{12}A_i}{n}=\frac{40+280+250+150+600+1070+1000+800+700+1500+1800}{12}=720\,\text{kVA}.$$

11.8 - jadvalni 4, 5, 6, 7, 8 ustunlarini jadvalni yuqori qismidagi formulalardan foydalanib to'ldiramiz.

$S_1 - \bar{S} = 40 - 220 = -180$ (4-ustun birinchi qatoriga);

$\left(S_1 - \bar{S}\right)^2 \cdot 10^{-2} = (-180)^2 \cdot 10^{-2} = 324$ (5-ustun birinchi qatoriga)

$A_1 - \bar{A} = 40 - 720 = -680$ (6-ustun birinchi qatoriga);

$\left(A_1 - \bar{A}\right)^2 \cdot 10^{-2} = (-680)^2 \cdot 10^{-2} = 4624$ (7-ustun birinchi qatoriga);

$\left(S_1 - \bar{S}\right)\left(A_1 - \bar{A}\right) \cdot 10^{-2} \cdot 10^{3} = (40 - 220)(40 - 720) \cdot 10^{-2} \cdot 10^{3} = 1224$ (8-ustun birinchi qatoriga).

Qolgan 2, 3...12 qatorlar yuqoridagi formulalar yordamida xisoblangan qiymatlar bilan to'ldiriladi.

3) Tanlanma to'plam korrelyatsiya koeffitsiyentini topamiz:

$$r^* = \frac{\sum_{i=1}^{12}\left(S_i - \bar{S}\right)\left(A_i - \bar{A}\right)}{\sqrt{\sum_{i=1}^{12}\left(S_i - \bar{S}\right)^2 \sum_{i=1}^{12}\left(A_i - \bar{A}\right)^2}} = \frac{6740}{\sqrt{1728 \cdot 32716}} = 0.897.$$

Korrelyatsiya koeffitsiyentining ushbu qiymati elektr energiya iste'moli bilan podstansiyaning xisobiy quvvati orasida bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

4) Chiziqli regressiya tenglamaning parametrlarini topamiz:

$$k = \frac{\sum_{i=1}^{12}\left(S_i - \bar{S}\right)\left(A_i - \bar{A}\right)}{\sum_{i=1}^{12}\left(S_i - \bar{S}\right)^2} = \frac{6740}{1728} = 3{,}9;$$

$$b = 720 - 3{,}9 \cdot 220 = -138.$$

5) Topilgan parametrlar orqali **chiziqli regressiya tenglamasini** tuzamiz:

$$A = kS - b = 3{,}9S - 138.$$

5 - misol. Suv ko'tarib beruvchi nasos qurilmasida o'tkazilgan ekperiment natijalari 3.5-jadvalda keltirilgan. Bu yerda W_i – nasosning suv ko'tarib berish unimi, P_i - agregat quvvati. P_i ni W_i bo'yicha chiziqli regressiya tenglamasini tuzing. Echish: 3.6 – jadvalning pastki qatorlarida $\sum_{i=1}^{7} W_i$ va $\sum_{i=1}^{7} P_i$ hamda $\overline{W}$ va $\overline{P}$ larning o'rtacha qiymatlari keltirilgan.

$\sum_{i=1}^{7} W_i \cdot P_i$ va $\sum_{i=1}^{7} W_i^2$ formulalar orqali 3.6 – jadvalning 3 va 4 - ustunlarini to'ldiramiz.

Olingan natijalar bo'yicha chiziqli regressiya tenglamasini qabul qilib, tenglama koeffitsiyentlarini aniqlaymiz.

3.6 - jadval

№	I	$W_i, m^3/s$	P_i, kVt	$W_i P_i\ 10^{-3}$ kVt m^3/s	$W^2_i\ 10^{-3}$ m^6/s^2
1	1	140	18,5	2,59	19,6
2	2	150	18,5	2,78	22,5
3	3	160	20,5	3,28	25,8
4	4	170	22,0	3,74	21,9
5	5	180	21,5	3,84	32,4
6	6	190	23,5	4,46	36,1
7	7	200	26,0	5,2	40
8	8	1190	150,5	25,92	205,2
O'rt. qiy.		170	21,5	-	-

Echish: 3.6 – jadvalning pastki qatorlarida $\sum_{i=1}^{7} W_i$ va $\sum_{i=1}^{7} P_i$ hamda $\overline{W}$ va $\overline{P}$ larning o'rtacha qiymatlari keltirilgan.

$\sum_{i=1}^{7} W_i \cdot P_i$ va $\sum_{i=1}^{7} W_i^2$ formulalar orqali 3.6 – jadvalning 3 va 4 - ustunlarini to'ldiramiz.

Olingan natijalar bo'yicha chiziqli regressiya tenglamasini qabul qilib, tenglama koeffitsiyentlarini aniqlaymiz.

$$k \frac{\sum_{i=1}^{7} W_i \cdot P_i - \overline{P} \cdot \overline{W} \cdot n}{\sum_{i=1}^{7} W_i^2 - \overline{W}^2 \cdot n} = 0{,}1196 \text{ kVtsoat/m}^3;$$

$$в = \overline{P} - k\overline{W} = 21{,}5 - 0{,}1196 \cdot 170 = 1{,}17 \text{ kVt}; \quad P = 0{,}1196W + 1{,}17;$$



2.2-rasm. Suv ko'tarib beruvchi nasos unumdorligi (W) va elektr mator quvvati (P) orasidagi bog'liqlik grafigi. 1-eksperiment natijalari bo'yicha, 2-regressiya tenglamasi bo'yicha.

6 - misol. 3.7-jadvalda keltirilgan 35/10 kV pasaytiruvchi podstansiyaning 10 kV shinasida kuchlanish qiymatini 24 marotaba o'lchash natijalari bo'yicha kuchlanishni (U) matematik kutilishi (m) uchun o'rtacha qiymatni $\bar{U}$ toping va ishonchlilik ehtimoli $\beta = 0,9$ ga mos keluvchi ishonchlilik intervalini quring.

3.7-jadval

I	U_i,kV	i	U_i, kV	I	U_ikV	I	U_i,kV
1	10,9	7	10,7	13	10,3	19	10,0
2	10,8	8	10,6	14	10,2	20	9,9
3	10,9	9	10,5	15	10,2	21	9,8
4	10,9	10	10,5	16	10,1	22	9,9
5	10,8	I	10,5	17	10,1	23	10,2
6	10,8	12	10,4	18	10,0	24	10,6

Echish: 3.7 – jadval bo'yicha kuchlanishni o'rtacha qiymatini $\bar{U}$ topamiz: $\bar{U} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} U_i = \frac{1}{24}\sum_{i=1}^{24} U_i = 10,4\kappa B$.

Quyidagi formuladan foydalanib bosh majmua dispersiyasini siljimagan baholanishini hisoblaymiz. Siljimagan baholanish $\tilde{D}$ statistik dispersiyadan D* farqli o'laroq tanlama baho ξ_β ni matematik kutilishi $M(\xi_\beta)$ uni izlanilayotgan qiymati ξ_0 ga teng bo'lgan holda baholash quyidagiga ega bo'ladi.

$$\tilde{D} = \frac{\sum_{i=1}^{n}\left(U_i - \bar{U}\right)^2}{n-1} = 0,122\kappa B^2,$$

Kuchlanishni o'rtacha kvadratik og'ishini quyidagicha topamiz:

$$\sigma^* = \sqrt{\tilde{D}} = \sqrt{0,122} = 0,349\kappa B.$$

2F(t)=0,9 bo'lganda Laplas funksiyasi jadvaldan (1-ilova 2.2-jadval) argumentni qiymati t_β ni qabul qilamiz ($t_\beta = 1{,}645$). Klassik baholash aniqligi ε_β ni topamiz:

$$\varepsilon_\beta = t_\beta \frac{\sigma^*}{\sqrt{n}} = 1{,}645 \cdot \frac{0{,}349}{4{,}9} = 0{,}117 кВ.$$

Ishonchli interval quyidagi chegaralarga ega: $\bar{U} \pm \varepsilon_\beta = 10{,}4 \pm 0{,}117 кВ$.

Shuni ta'kidlash lozimki, biron bir ξ_0 kattalikni tasoddifiy kattalik sifatida ishonchlilik intervalini aniqlashda ξ_0 ni koordinatasi emas, ishonchlilik intervali chegaralari orqali baholash kerak. Shunday qilib ishonchlilik chegaralarini aniqlab $\xi_0 \pm \varepsilon$ berilgan β ishonchlilik ehtimolliligiga ega berilgan ξ_0 nuqtani ishonchlilik intervalini yopadimi (qoplab oladimi) yo'qmi degan savolga javob olamiz.

7 - **misol.** Meva saqlash omborxonada olma mavasi saqlanadi. Mahsoulot saqlanish darajasi asosiy parametr bo'ladi - (u), uni birlamchi mahsulotlarga nisbatan foizlarda olingan miqdori ko'rinishda ifodalaymiz. Me'yoriy xujjatlarga ko'ra mahsulotni saqlnishi davomida (meva 4-6 oy saqlanganda) ruxsat etilgan namlikni yo'qotish darajasi 6 % gacha, chiqindiga chiqishi (chirishi) 10% gacha ruxsat etiiladi. Bu mikdor yo'qotishlar meva 4-6 oy saqlanganda bo'ladi.

Mahsulotning yaxshi saqlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi faktorlar tanlaymiz. Ular boshqariluvchi, bir - biriga bog'lik bo'lmasligi kerak: X_1 – havoning harorati. Harorat oshsa mahsulot tez qurib, chirish jarayoni tezlashadi, pasaysa muzlaydi. Xarorat o'rtacha 0 °C atrofida ushlab turilishi kerak. Haroratni 5°C dan - 1°C gacha pasaytirib kuzatish mumkin.

X_2 - havoning nisbiy namligi. Namlik normadan kichik bo'lsa, mevani namlikni yo'qotishi tezlashadi, chiriydi, yukori bo'lsa: (100%) mahsulotda kasallanish ko'payadi. Optimal qiymatini (85 dan 95)% gacha oralig'ida qidiramiz. Meva mahsuloti saqlanish jarayonida nafas olib turadi, yani kislorod (O_2) iste'mol qilib, karbonat angidrid (SO_2) chiqaradi. Bu jarayonga xavoni ionlanish darajasi ham ta'sir qiladi. Chunki O_2^- va SO_2^+ manfiy va musbat qutbga ega bo'lgan ionlar bo'lib, atmosfera potensialiga bog'lik ravishda modda almashinish jarayoni ketadi. Ushbu faktorni X_3 bilan belgilaymiz va uning o'zgario'ining yuqori tva past chegaralarini (10^5–10^7)Ion/sm^2

Birlamchi ma'lumotlar TashDAU Qishloq xo'jaligida elektr energetika va elektrotex nologiyalar kafedrasida meva saqlash bo'yicha olib borilgan ilmiy-amaliy tatqiqotlar natijalari (mevani

